

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

BERDIYEVA ZEBO URALOVNA

BADIIY NUTQDA METAFORA

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar – filologiya fanlari
nomzodi **Sh.Bobomurodova**

Termiz – 2012

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI	3–5
KIRISH	7–10
BIRINCHI BOB. METAFORANING MILLIY TABIATI.	11–38
1.1. Metafora til va madaniyat, ma’naviyat mushtarakligi ko‘zgusida.	11–30
1.2. Metafora talqini va zamonaviy metaforologiya muammolari.	31–38
Bob bo‘yicha xulosa	38–39
IKKINCHI BOB. BADIY NUTQDAGI METAFORA LINGVOMADANIY KONSEPT SIFATIDA	40–72
2.1. Badiiy nutqdagi metafora haqida.	40–51
2.2. Badiiy nutqdagi metafora milliy ma’naviyat va madaniyat ifodasi sifatida.	51–72
Bob bo‘yicha xulosa	72–73
XULOSA	74–77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	78–80

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. “Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat – ma’rifatli insonning ikki qanotidir”,¹ deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz I.Karimov. Jamiyat taraqqiyotining har yangi bosqichi kishilarning ma’naviy kamolatida ham yangi davrni yuzaga keltiradi. Ma’naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo’lgan jamiyat bo’lmaganidek, jamiyatsiz ma’naviyat ham rivojlanishi mumkin emas. Ma’naviyatning rivoji esa o’zining ko’zgusi hisoblangan til va uni o’rganuvchi tilshunoslikka borib taqaladi.

Lisoniy struktura va lisoniy birliklarni, lisoniy birliklarning imkoniyatlarini o’rganish davrini o’tagan jahon tilshunosligi o’zining amaliy bosqichida lisoniy imkoniyatlarning nutqiy xususiyatlarini o’rganishda davom etmoqda.

Muayyan tildagi lisoniy hodisalarni til va madaniyat yaxlitligi, shuningdek, u bilan bevosita bog’lanib ketadigan kognitiv aspektda tadqiq qilish amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Xususan, milliy ma’naviyat va madaniyatni o’zida yaqqol namoyon qiluvchi metaforik hodisalarni lingvomadaniy va kognitiv tadqiq qilish bugungi kunda milliy ma’naviyat muammosi global xarakter kasb etayotgan bir sharoitda o’ta dolzarb.

Ko’chimlar, uning markazida turuvchi metafora o’zining sof milliy tabiati bilan ajralib turadi. Unda milliy tilning borliqni tasniflash va o’z kartinasida aks ettirish xususiyatlari mujassamlashgan bo’ladi. Metaforada xalq turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari, mentaliteti, tafakkuri, bilish jarayoni kabi qator hodisalar o’z ifodasini topadi. Shu boisdan metaforani lingvomadaniy va kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq qilish til va jamiyat muammosi kesimida har doim ham dolzarb masala sifatida namoyon bo’ladi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий, иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. –Т.: Ўзбекистон, 1995, –Б. 46.

Mavzuning tadqiq darajasi. Dunyo tilshunosligida zoomorfik, badiiy metaforik, antromorfik, ximiomorfik, vegetatomorfik kabi metaforalarni o'rganish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan.¹ Xususan, Arastu davridan boshlangan metaforologik tadqiqotlar sirasida zamonaviy tadqiq usullari asosida Gusakova, Kiryushkina, Panasenkov, Podolyan, Serdyuk kabi olimlar tomonidan bir til yoki asosida yoki qiyosiy aspektda turli aspektlarda atroflicha o'rganildi va o'rganilmoqda. Biroq o'zbek tilshunosligida metafora na onomosiologik, na lingvokulturologik va na pragmatik nuqtayi nazardan maxsus tadqiq qilingan. Fanimizda metaforaga bag'ishlangan umumiy xarakterdagi ishlarni ko'ramiz.² Xususan, S.Usmonov, M.Mirtojiev va ular shogirdlarining ishlarini ta'kidlash lozim. Biroq bu borada bajarilgan ishlar formal xarakterga ega bo'lib, metaforani lison va nutq tamoyili asosida o'rganish borasida tayinli ish bajarilganligini ko'rish qiyin. Taassuf bilan qayd etish lozimki, tilning mental tabiatini namoyon qiladigan metaforani sosiopragmatik va lingvomadaniy hamda kognitiv o'rganish ehtiyoji kuchaygan bir sharoitda o'zbek tilshunosligida bu borada yetarli ishlar amalga oshirilmasdan qolmoqda. O'zbek tilshunosligida esa metafora tashkil qiluvchi lisoniy birliklar lingvistik aspektda yo'l-yo'lakay tadqiq qilingan.³ Biroq

¹ Bu haqda quyidagi saytlardan ma'lumot olish mumkin: <http://slovari.donpac.ru>, <http://www.myreferats.net>, <http://www.krugosvet.ru>, <http://www.dissert.ru>, <http://www.twirpax.ru>, <http://www.Turklib.com> va h. Yoki <http://google.com>, <http://yandex.com> izlovchi internet saytlari orqali metafora haqida ma'lumotlar topish mumkin.

² Шоабдурахмонов Ш. «Равшан» достонининг тили ва стили: филол.фан.докт. ...дисс. –Т., 1949; Кўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 1975; Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби(лексика ва фразеология):филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд, 2001; Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд, 2004; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 2006. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 2000 ва б.

³ Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. –Т., 1969; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: автореф. дисс....канд.филол.наук. –Т.,1968. Шомаксудов А. Муқимий сатираларининг тили. –Т., 1970; Ярыев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: автореф. дисс....канд.филол.наук. –Т.,1979; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. автореф. –Т., 1990; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати:

ularning milliy, etnik ma'naviyatni, xarakterini o'zida aks etiradigan milliy va gender tavsifi, lingvokulturologik aspekti tadqiq qilinmagan. Bu tadqiqotda mazkur badiiy nutqdagi metafora til va madaniyat, til va tafakkur yaxlitligi muammosi sifatida, kognitiv strukturasini nuqtayi nazaridan ilmiy tekshiriladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Dissertatsiyaning maqsadi o'zbek tilidagi badiiy nutqdagi metaforaning lingvomadaniy va kognitiv xususiyatini ochishdan iborat. Bu maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish asosida erishiladi :

- badiiy nutqdagi metaforaning o'zbek milliy madaniyatida tutgan o'rnini aniqlash;
- badiiy nutqdagi metaforaning milliy tabiatini bayon qilish;
- badiiy nutqdagi metaforaning tasnifiy belgilarini ochish;
- badiiy nutqdagi metaforaning olamning lisoniy manzarasida o'rnini tavsiflash;
- badiiy nutqdagi metaforaning kognitiv strukturasini baholash.

Ishning tadqiq ob'yekti, predmeti va materiali. Ishning tadqiq ob'yekti badiiy nutqdagi metafora, tadqiq predmeti uning lingvomadaniy va kognitiv aspektidir.

Ishning metodlari. Tadqiqotning metodologik asosi mustaqillik mafkurasi, milliy g'oya va milliy ma'naviyatga doir asarlar, dialektika kategoriyalari, tadqiq usuli esa komponent, differensial-semantik, tipologik, qiyoslash va distributiv tahlildir.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar.

1. O'zbek tilshunosligining bugungi holati til hodisalarini lingvokulturologik va kognitiv aspektda o'rganishni taqozo qilmoqda.
2. Badiiy nutqdagi metaforada milliy ruh va milliy madaniyat yaqqol namoyon bo'ladi.
3. Badiiy nutqdagi metaforada kognisiya predmetlarning zohiriy va botiniy xususiyatlariga tayanadi.

4. Badiiy nutqdagi metaforadagi kognisiyada milliy tafakkur o'z aksini topadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- badiiy nutqdagi metaforaning o'zbek milliy madaniyatida tutgan o'rni aniqlanadi;
- badiiy nutqdagi metaforaning milliy tabiati bayon qilinadi;
- badiiy nutqdagi metaforaning tasnifiy belgilari ochiladi;
- badiiy nutqdagi metaforaning olamning lisoniy manzarasida o'rni tavsiflanadi;
- badiiy nutqdagi metaforaning kognitiv strukturasi baholanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi boshqa barqaror birliklarni tadqiq qilishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya Kirish, ikki asosiy bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyot ro'yxatidan iborat. Times New Roman shriftining 1,5 intervali 14 kegel kattalagida 80 sahifani tashkil etadi.

KIRISH

Keyingi davrda tilshunoslik muammolarini boshqa fanlar tutashuvida kuzatish kuchaymoqda. Biroq bu bir tomondan mustaqil fan sifatidagi tilshunoslikning ham mustaqilligiga soya solgandek bo‘ladi, albatta. Professor R.A.Budagov fikricha, qattiq mehnat evaziga mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan tilshunoslikning yana qaytadan til tizimiga oid bo‘lmagan hodisalar bilan qiziqishi uning boshqa fanlar bilan qorishib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan. Bu haqda professor Sh.Safarovning quyidagi istehzoli fikrini keltirish o‘rinli: “Agarda tilshunoslikning mustaqilligini uning sofliqi, ya’ni sof lisoniy hodisalar tadqiqi bilan mashg‘ul bo‘lishi mazmunida tushunsak, unda tilshunoslikni faqat til qurilmasi tuzilishining tavsifi bilan shug‘ullanuvchi fan sifatida e’tirof etishga majbur bo‘lamiz. Ammo bunday majburiyatni bizga kim zo‘rlamoqda. Insonning voqelikni bilishga ehtiyoji o‘sib boradi. Lison ham voqelik, u voqelikdagi mavjud hodisa. Shunday ekan, til qurilmasi ne sababdan u yoki bu tuzilishni olishini yoki ushbu qurilma mexanizmlarini harakatga keltiruvchi energiya – kuchning manbai qaerda ekanligini, umuman, lisoniy qurilmaning qanday va nima maqsadda “ishlatilishini” bilishga qiziqmaymizmi?”¹ Ko‘rinadiki, til hodisalari borliqda sof til hodisalari sifatida mavjud emas. Uning mohiyati boshqa turli “begona” mohiyatlar zarralari qorishuvidan iborat bo‘lib, unga, ya’ni o‘rganish ob’yektiga yaxlit sistema sifatida munosabatda bo‘lish tilning mohiyatiga yaqinlashuvning asosiy omillaridan biridir. “Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik barcha majoziy ifodalarning, jumladan, troplarining (evfemizmlarning ham) shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladigan usullar – ma’no ko‘chish yo‘llaridir.”² Ma’lumki, metafora har bir tilning milliy mental qoliplari bilan o‘rganiladigan

¹Сафаров Ш. Пргмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти, 2008. – Б.3-4.

²Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006. – Б. 47.

hodisasi bo‘lib, uni baholashning o‘ziga xos formulalari mavjud. Metaforani baholashning murakkabligi, birinchidan, uning milliy xoslanganligida bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy yaxlitlik, albatta, ichki bo‘laklardan, gender, yosh va sotsial guruhlardan tashkil topganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, milliy yaxlitlik tarkibiy qism sifatida boshqa “nomilliy” qismlar bilan yirikroq yaxlitlikka tobe bo‘lishi ham nazarda tutilishi lozim. Chunki globallashuv jarayonida xalqaro integrasiya millatlararo ma’naviy chatishuv, ma’naviy “diffuziya” hodisasini ham kuchaytirayotganligi sir emas. Masalan, *sadoqat* (vera) tushunchasi sharqona milliy-diniy tasavvur nuqtayi nazaridan nafaqat ma’naviy-ruhiy, balki “jismoniy” sadoqatni ham nazarda tutadi. Shuningdek, *raskovannoe more* metaforik qurilmasi bu muhitda butunlay boshqacha tasavvur qilinishi mumkin. Chunki dengizdan uzoq hayot tarziga ega etnik hududlarda u haqda ko‘pincha eshitganlari haqida tasavvur mavjud. Ko‘rish va eshitish asosidagi tasavvurlar miqdoriy va sifatiy farqlarga ega bo‘lishi shubhasiz.

Shuningdek, sotsial tiplar orasidagi farqlar ular tomonidan yaratilgan metaforik birlik va ma’nolarda aks etadi va ular talqinida ham sotsial mentalitet muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *dux, cherpak, fazan, salaga* (harbiy xizmatchilar nutqiga xos) *yoxud zelyoniy, obez‘yan, krokodil, xozyayka* (mahbus va mahkumlar nutqiga xos) kabi metaforik birliklar ma’nosi talqinidagi murakkabliklar ushbu omil bilan bog‘lanadi.

Metaforaning yaratilishi sotsial psixologiya bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi kabi ularning to‘laqonli talqinida ham sotsial psixologiya bo‘yicha maxsus bilim, hech bo‘lmasa, tasavvurlar talab qilinadi. Mahbuslar tilida oyna (zerkalo) ga nisbatan *obez‘yan* metaforik ma’noli birligi qo‘llanadi. Uning metaforik ma’nosi qo‘llanish muhiti bilan bog‘lanadi. Sotsial sharoit metaforik ma’noning genetik va denotativ mohiyatini ta’minlaydi. Mahbuslar uchun oyna ishlatish yoki uni kamerada saqlash xavfsizlik nuqtai nazaridan ta’qiqlanadi. Shu boisdan unga boshqa nom qo‘yish uni sir saqlash imkonini beradi. Ikkinchidan,

tanlangan soʻzning denotativ mohiyati ham obʻktiv voqelik bilan bogʻlanadi. Mahbusning baroq qiyofasi birlamchi denotativ shart boʻlsa, mahbusga tashqi, ijtimoiy munosabat uning yordamchi shart boʻlib xizmat qiladi.

Koʻrinadiki, metafora talqini milliy va sotsial xoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Diniy eʼtiqod va tasavvurlar ham sotsial omil sifatida metaforik maʼnolar hosil qilishda ishtirok etadi. Xususan, oʻzbek dunyoviy taʼlim tizimida talabalar nutqida sessiyaning tugatilishiga nisbatan *yopmoq* metaforik slengi qoʻlanilishi kuzatilgan. Ammo islom dini taʼlimiy muassasalarida *qutulmoq* soʻzi ishlatilgani qayd etildi.

Davr va muhit metaforik maʼno hosil qilishning asosiy shartlaridan biridir. Oʻzbek adibi Abdulla Qodiriy asarlarida qoʻllangan evfemizmlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan X.Qodirova taʼkidicha, adibning kalta kiyingan qizlarga nisbatan qoʻllangan *dumsiz*, *pinhon*, *sirli ravishda* qilinajak yumushlarga nisbatan ishlatilgan *yeng ichida* evfemik ifodalari, “gunoh” tushunchasining evfemik ifodasi hisoblanmish *yoziq* birligi metaforik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi va ularni metaforik qiymatini baholashda davr muhitidan kelib chiqish lozim.¹ Zero, bugungi kunda, Abdulla Qodiriy yashagan muhitdan farqli ravishda, kalta kiyingan qizlarga nisbatan bu metaforik ifodani ishlatish urf emas.

Globalashuv sharoitidagi integrasiya jarayonida tillararo taʼsir kuchayayotganligini kuzatish mumkin. Natijada yoshlar nutqida metaforik koʻchim mohiyatga ega boʻlgan oʻzlashma birliklarning qoʻllanilishini koʻplab kuzatish mumkin. Masalan, *fortochka*, *galochka*, *palka*, *xvost*, *kirpich*, *veshalka* kabi. Bu, albatta, birinchidan, yoshlarning kayfiyati, milliy mahdudlikdan tashqari holati, oʻzga madaniyatlarga havasi sifatida baholansa, ikkinchidan, ijtimoiy axloqiy normalar nuqtai nazaridan oʻz milliy maʼnaviyatiga bepisandlik,

¹Кодирова Х. Эвфемик бирликларнинг маъно камрови асосидаги таснифи // А.Фуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. –Т., 2009. –Б.73.

tashqi madaniyatga taqlid sifatida ham qaralishi mumkin. Ikki holat ham lisoniy integrasiyaning muqarrar sabablaridan.

Demak, aytish mumkinki, til hodisalarini ichki va tashqi omillar yaxlitligida tekshirish, yaxlit ko‘zgu orqali orqali munosabatda bo‘lish uning rivojlanish va qo‘llanish tendensiyalarini to‘g‘ri anglash va talqin qilish imkonini beradi.

Birinchi bob

METAFORANING MILLIY TABIATI

1.1. Metafora til va madaniyat, ma'naviyat mushtarakligi ko'zgusida

Til va madaniyat mushtarakligi talqini. Har qanday til sof milliy tabiatga ega bo'lganligi tufayli undagi har bir hodisa mohiyatini yoritishda, albatta, shundan kelib chiqmoq lozim. Leksik sath birliklari haqida so'z ketganda shuni ta'kidlash lozimki, milliylik nafaqat ushbu tilgagina xos so'zlarda, hatto boshqa tilda muqobili mavjud birliklarda, shuningdek, zamonaviylik jihatidan qanday bo'lishidan qati nazar (o'zlashma so'z, olinma so'z yoki neologizm) barcha o'zlashma leksik birliklarda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har qanday o'zlashma birlikda har doim ham milliylikni izlashga mukkasidan ketish ma'qul bo'lmaganligi kabi, ularda tadqiq maqsadidan kelib chiqqan holda milliylikni ko'ra bilmaslik metodologik va ilmiy norasolikdan o'zga narsa emas.

Til va milliy munosabati millat tushunchasi paydo bo'lgandan buyon ularning o'zaro munosabati bilan bog'liq fan vakillarini o'ylantirib keladi va bugungi globallashuv tufayli milliy ma'naviyat va madaniyat muammosi o'tkirlashgan bir paytda u o'ziga xos ahamiyat kasb etdi va munozaralar maydoniga aylandi. Xususan, tilshunoslikda bu masala fanning o'rganish ob'yekti xususiyatiga bog'liq ravishda, shuningdek, fanlararo integrasiya kuchaygan bir sharoitda yanada dolzarblashdi. Munozaralarda ilgari surilayotgan muammolarni umumlashtirgan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) til madaniyatning tarkibiy qismidir;
- 2) til madaniyatning faqat ifodalovchisi bo'lib, uning o'zi madaniyat tarkibiga kirmaydi;
- 3) til madaniyat unsuri ham, ifodalovchisi ham emas.

Xususan, til va madaniyat dialektikasi masalalari bilan shugʻullangan olimlardan ayrimlarining fikrlarini keltirish oʻrinli. Amerika etnolingvistikasining asoschilaridan biri boʻlgan E.Sepir bu haqda quyidagilarni bayon qiladi: “madaniyat bu muayyan jamiyat nima qilayotganligi va nimani oʻylayotganligi boʻlsa, til uni qanday, qay tarzda oʻylayotganligidir.”¹ Rus etnolingvisti N.I.Tolstoy esa fikrini til aʼmolining boshqa xususiyatiga yondashgan holda bayon qiladi: “Madaniyat va til munosabatini butunning boʻlakka munosabati sifatida qaramoq lozim. Til madaniyatning uzvi yoki vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu, ayniqsa, adabiy til yoki folklor haqida soʻz ketganda eʼtirof etiladi. SHu bilan birgalikda, til madaniyatga munosabat nuqtai nazaridan mustaqil mavjudlikdir, uni madaniyatdan ayri qarash ham mumkin (odatda, shunday yoʻl tutiladi) yoki u madaniyat bilan teng huquqli va teng qiymatli fenomendir.”²

Aytilganlar fikrlarni tilshunoslik fanining taraqqiyot bosqichlaridagi ijtimoiy buyurtma va talablardan kelib chiqqan holda baholash lozim. Holbuki, tilning ontologik mohiyatini ochish, lisoniy struktura va lisoniy birliklarni boshqa nolisoniy struktura va birliklardan xoli tadqiq qilish davrida tilni madaniyatdan ajratgan tekshirish urf boʻlgan edi va buni mutlaqo qoralab boʻlmaydi. CHunki bu davrda sotsial-madaniy, kommunikativ, psixologik, lingvokulturologik va lingvokognitologik tadqiqqa ehtiyoj hali sezilmagan edi. Zero, tilni tadqiq qilishning birinchi bosqichida til sistemalari, ikkinchi bosqichda sistemaning yashovchanligini taʼminlayotgan struktura oʻrganilgan boʻlib, uchinchi bosqich bu sistemaning funksiyasini tekshirish bilan mashgʻul boʻladi. Uchinchi bosqichgina tilni jamiyat ehtiyojlari bilan bogʻliq ravishda tadqiq qiladi va uni yondosh hodisalar bilan yaxlit tekshirishni kun tartibiga qoʻyadi. Taʼkidlash

¹ Сепир, Э. Язык, раса, культура // Избранные труды по языкознанию и культурологии. - М, 1993. - С.193.

² Толстой, Н. И. Язык и культура // Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. - М., 1995. - С. 16.

lozimki, o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 70- yillarigacha tilning ichki sistemalari aniqlangan, til birliklarining semantikasi tadqiq qilingan, 80-yillaridan tilning strukturasi va lisoniy birliklari tabiati tadqiq qilingan, XXI asr boshidan esa til va jamiyat, til va shaxs dialektikasi muammosi kun tartibiga qo'yila boshlagan edi. Bu, albatta, g'arb tilshunosligida birmuncha ilgariroq va o'zgacharoq tusda kechgan edi.

Albatta, til va madaniyat, til va xalq ongi munosabati masalalari ancha oldin nazariyotchi tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan edi. Jumladan, tilshunos V.Humdoldt til va madaniyat munosabati masalasini ko'tarib chiqqan va uni moddiy va ma'naviy madaniyat bilan aloqadorlikda o'rgangan edi. Uning ta'kidicha, moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi; har qanday madaniyat milliydir, uning milliy tabiati tilda borliqni o'ziga xos ko'rishi bilan ifodalanadi; tilga har bir xalqning o'ziga xos ruhiyati, madaniyati ifodalanuvchi ichki shakli xos; til inson va borliq bilan bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.¹

Til milliy va nomilliy vositalardan tarkib topgan bo'lishiga qaramay, unda mavjud nomilliy, ya'ni o'zlashma birliklar shu til sohibi bo'lgan millat ongi prizmasidan o'tgan fikr mahsulini ifodalar ekan, shaklan nomilliy bo'lsa-da, mazmunan milliy tabiat kasb etadi. O'zlashma birliklar uni o'zlashtirgan millat ma'naviy boyligi bilan to'yinadi, bir vaqtning o'zida milliy madaniyatni o'zga madaniyat unsuri bilan boyitadi. Bir qarashda marginallik kasb etgandek tuyuluvchi madaniyat aslida madaniyatlar baynalmilallashuvi, madaniyatlararo komunikativ globallashuv jarayonida o'zining yangi bosqichiga ko'tariladi, milliy o'ziga xoslik yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Millatlararo integrasiyalashuv faqat leksik o'zlashmalar doirasida kechganligi sababli ham u qandaydir diffuzlik kasb etmaydi, o'zi kirib kelgan madaniyatni o'ziga singdirishga qodir emas, balki ushbu madaniyat tarkibiga singib ketadi. Til D.S.Lixachev ta'biricha, "til

¹ Базарова Л.В. К вопросу о соотношении языка и культуры // Образование и культура России в изменяющемся мире. - Новосибирск, 2007. - С. 72-76.

milliy-lisoniy hamjamiyatda milliy madaniy konsentrat sifatida namoyon bo‘ladi”¹, bu majmuada, albatta, milliy o‘ziga xoslik ustuvorligicha qolaveradi.

Har bir til betakror bo‘lib (garchi u muayayn yaqin tillar bilan genetik aloqada bo‘lsa-da), u birgina atov birliklari bilangina borliqni to‘lig‘icha o‘zida aks ettiradi, bu aksni “opichlab”, asrlar qa’ridan avlodlarga uzatadi. N.Smelzer ta’kidlaganidek, “tilda ifodalanmaydigan madaniy unurni topib bo‘lmaydi”.²

Har bir til milliy bo‘lganligi kabi, milliy nigohlar ham to‘lig‘icha milliy bo‘lib, millat borliqni ana shu nigohlar bilan ko‘radi va ularni baholashda ichki milliy tafakkur va milliy stereotiplar asosida ish ko‘radi. SHu boisdan milliy madaniyat, qadriyat va tafakkur o‘lchamlari borliq hodisalarini “o‘lchash” barobarida, o‘lchash vositalariga ham milliy-mental “etalon” asosida munosabatda bo‘ladi. V.I.Karasik fikricha, “til va madaniyat – gumunatir bilimlarning muhim tushunchasi. Tilning sotsial mohiyati shundaki, u, avvalo, jamoaviy va individual lisoniy ongda mavjud bo‘ladi. Bunga muvofiq ravishda, bir tomondan lisoniy jamoa, ikkinchi tomondan, individium, tilda madaniyatni tashuvchi hisoblanadi.”³

Ma’lumki, har qanday madaniyat ifodasi simvolik tabiatga ega bo‘ladi.⁴ Ifodalovchilar ramziy mohiyatga ega bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida tashqi qobiq bo‘lish bilan birga, ikkinchi tomondan, o‘z “mag‘zi” bilan bamisoli et va tirnoq kabi birlashib ketadi. Bunday talqinda tilning belgililik xossasiga ma’lum darajada putur yetgandek ko‘rinadi. Har qanday shartli belgidan farqli o‘laroq, til belgilari va uning ifodalanmishlari orasida qandaydir boshqa botiniy bog‘liqlik mavjuddek tuyuladi. Zero, tilning paydo bo‘lishi haqidagi ilohiylik g‘oyalarini ilgari suruvchi qarashlarning mavjudligi ham uning boshqa “shartli” belgilardan

¹ Лихачев, Д. С. Очерки по философии художественного творчества. - СПб., 1996. – С. 28.

² Смелзер, Н. Социология. - М., 1994. – С. 52.

³ Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград, 2002. – С. 8.

⁴ Базарова Л.В. К вопросу о соотношении языка и культуры // Образование и культура России в изменяющемся мире. - Новосибирск, 2007. – С. 72-76.

farqliligini ko'rsatadi. Ya'ni, boshqa biror shartli belgiga nisbatan ilohiylik nuqtai nazardan munosabatda bo'linmaganligi til belgilariga nisbatan boshqa shartli belgilarga qo'yiladigan talablar asosida munosabatda bo'lish nomaqbulligini dalillaydi.

M.M.Baxtin: "Biz o'zga madaniyatga o'zi qo'ymagan yangi savollarni beramiz. U esa biz uchun o'z mohiyatini namoyon qilib, yangi mazmuniy chuqurliklarini ochib, javob beradi." (335)

Til va ruh munosabati talqini ma'lum darajada dolzarblashgan XIX asrda atoqli tilshunoslar A.A.Potebnya, V.Humboldt kabilar tilni belgilar sistemasi deb emas, balki ruhiy kuch, qudrat sifatida talqin etishgan edi. Ana shu belgi uni boshqa ishoraviy sistemalardan farqlab turadi. "Til anglanish va namoyon bo'lish jarayonidaga xos ichki borliq a'zosidir. Til barcha nozik ildizlari bilan xalq ruhiga chambarchas bog'langan, xalq ruhi esa tilga ta'sir qilib, uning qonuniyatli rivojini, boyib borishini ta'minlaydi." Boshqa belgilar tizimidan farqli ravishda tilning rivoji "kelishuv" asosida emas, balki xalq, millat ruhiyati, milliy dunyoqarash rivoji asosida takomillashib, qulaylashib boradi.

Tilning milliy ruhiyat bilan bog'liq "stixiyali" rivojlanishini talqin qiluvchi bu yo'nalishni neohumboldtchilar bo'lmish E.Sepir va B.Uorflar "lingvistik nisbiylik farazi" shaklida rivojlantirdilar. Yuqorida aytilganidek, ular milliy "nigoh"lar borliqni turlicha ichki ruhiyat asosida ko'rishlarini bo'rttirdilar. Bu nigohda ruhiyat ushbu nigohning bamisoli fokuslari ekanligini nazarda tutdilar. Natijada turli milliy tillar uchun borliq kartinasi o'ziga xoslik kasb etadi va "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasidagi *lisoniy* so'zi uning tarkibida "milliylik" semasi asosida o'rin egallaydi. B.Uorfning quyidagi so'zlariga quloq tutaylik: "aniqlanishicha, har qanday til sistemasining asosi uning shakllangan fikrni shunchaki ifodalovchi vosita ekanligi emas. Aksincha, grammatikaning o'zi fikrni shakllantiradi, individiumning fikriy faoliyati uchun qo'llanma va dastur, uning tasavvurlarini tahlil va umumlashtirish quroli vazifasini o'taydi. Biz

borliqni ona tilimiz boshlagan yo‘nalish asosida “bo‘laklaymiz”. Biz olamdagi hodisalarga xos kategoriyalarni ular shu holia aniq va ravshan bo‘lganligi uchun ajratmaymiz, aksincha, olam tasavvurlarning kaleydoskopik oqimi sifatida namoyon bo‘ladi, bu oqim esa ongimiz tomonidan, demak, ongimiz o‘zida saqlagan til sistemasi tomonidan amalga oshiriladi. Biz borliqni shunday “bo‘lamiz” va tushunchalarda joylashtiramiz va sistemalashtiramizki, bu istalgan yo‘sinda bo‘lavermaydi. Zero, “bitim” ishtirokchilari shunday “qaror qilishgan”. “Bitim” muayyan til jamoasi doirasidagina amal qiladi va tilimizning modellar sistemasiga biriktirilgan bo‘ladi.”¹ Bundan shunday metodologik xulosa kelib chiqadi: til sohiblarining tafakkur tarzini belgilaydi; real dunyoni bilish usuli fikrlovchi sub’ektning qaysi til sohibi ekanligiga bog‘liq.² Bu g‘oya keyinchalik L.Veysberger tomonidan tilning oraliqlik (borliq va ong orasida) xususiyati sifatida rivojlantirilganligini ko‘rish mumkin: “Til ruhiy hayotning barcha sohalarida yaratuvchi kuch sifatida amal qiladi.”³ Bunday tilning nisbiylik maqomi uning borliqqa nisbatan ikkilamchi va ongga nisbatan birlamchiligi xossasi bilan belgilanishi ma’lum bo‘ladi.

Tilning madaniyatga nisbatan “hukmronlik” rutbasi barcha olimlar tomonidan ham birday qabul qilinavermaydi. Buni G.V.Kolshanskiy, B.A.Serebrennikov, E.Xollenshteyn, R.M.Uayt, R.M.Frumkin, D.Dodd kabilarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Ularda tilning yaratuvchilik kuchi inobatga olinmaydi, hatto inkor qilinadi. Tilning borliq va ong oralig‘idagi o‘rni yo‘qligi bo‘rttiriladi. Quyida B.A.Serebrennikovning yuqoridagi nisbiylik faraziga raddiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

¹ Уорф, Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. - М., 1960. - Вып. 1. - С. 174.

² Базарова Л.В. К вопросу о соотношении языка и культуры // Образование и культура России в изменяющемся мире. - Новосибирск, 2007.

³ Вейсгербер, Й. Л. Язык и философия // Вопросы языкознания. - 1993. - № 2.

a) ongda shakllanuvchi tushunchalarning manbai borliqning o'zidir. Til esa inson tomonidan borliqni idrok etish natijasidir, illo ta'sir qiluvchi kuch, borliqni yaratuvchi qudrat emas;

b) til ma'lum darajada insonning fiziologik qurilishi xususiyatlariga mo'ljallangan, ammo bu o'ziga xoslik uzoq davr mobaynida insonning borliq bilan to'qnashishi natijasida shakllangan;

d) tildan tashqari hodisalarning bir xil bo'lmagan bo'laklanishi birlamchi nominasiya jarayonida yuz beradi. U lisoniy dalillar farqlanishi, assosiasiyalarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.¹

Lingvistik nisbiylik gipotezasining turli talqinlari va ulardagi ziddiyatli holatlar bilan tanishish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, u faraz, ikkinchidan, garchi u faraz bo'lsa-da, ko'pchilikning e'tiborini tortayotganligi, tadqiqotlar qamrovining kengayib borayotganligi til va madaniyat mushtarakligini asoslash bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi lozimligini ko'rsatadi. M.Koul va S.Skribnerlar haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, tilshunoslikning bu muammo bilan shug'ullanuvchi, o'rganish predmeti nafaqat sotsial muloqot vositasi, balki tafakkur quroli, madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan yosh sohasi yashashda davom etmoqda.² Til va madaniyat, milliy til va milliy ongning dialektik aloqasi haqida S.G.Ter-Minasovanning quyidagi fikrlarini xulosa sifatida keltirish mumkin: "Til – madaniyat oynasi, unda nafaqat insonni o'rab turgan real dunyo, uning real turmush sharoiti, balki xalqning ijtimoiy o'zini-o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloq, qadriyatlar tizimi, borliqni his qilishi, dunyoni ko'rishi aks etadi."³ Bularning barchasi biz quyidagi ko'rib o'tadigan borliqni tasniflash va

¹ Серебренников, Б. А. О материалистическом подходе к явлениям языка. - М., 1983; Яна каранг: Базарова Л.В. Там же.

² Коул, М. Культура и мышление // Психологический очерк ; под ред. А. Р. Лурия. - М.: Прогресс, 1977. - С. 80.

³ Тер-Минасова, С. Г. Языки и межкультурная коммуникация // Учебное пособие. - М., Слово, 2000.

baholashning sof milliy ko‘rinishlaridan bo‘lgan metaforizasiya va metafora hodisasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Metafora milliy madaniyat ifodalovchisi sifatida. Dj.Viko ta’kidlaganidek, “har bir metafora kichkina mifdir.”¹ Shuning o‘ziyoq metaforani milliylik bo‘yog‘idan xoli tasavvur qilib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. “SHu sababli u borliqni muayyan va mavhum his qilish amalga oshiriladi va shuning uchun ham u tilda mif ijod qilishning samarali usuli hisoblanadi.”² Shu ma’noda jahon metaforologiyasining atoqli vakillari bo‘lgan Dj.Lakoff va M.Jonsonning quyidagi fikrlarini tadqiqotning yo‘nalishini belgilaydigan metodologik qiymatli asos sifatida keltirish mumkin: “Biz barcha madaniy qadriyatlar metaforik sistema bilan muvofiqlashgan holatda real hukm suradi deyish fikridan yiroqmiz. Faqat biz real mavjud va madaniyat qa’riga chuqur singib ketgan qadriyatlargina metaforik tizim bilan muvofiqlashadi.”³

Milliy qadriyatlarimiz metaforik sistema bilan muvofiq bo‘lib, ularning bog‘liqlikda tadqiq etilishi bugungi lingvoaksiologik tadqiqotlarning asosiy oqimlari uchun o‘rganish predmetiga aylandi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlarning o‘zi ham turli-tuman bo‘lib, tilshunoslar va fanshunoslar tomonidan turlicha tasnif qilinadi. Masalan, bugungi kunda dunyo xalqlari uchun birday qadrlanadigan ozodlik, tinchlik, farovonlik umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Ammo ayrim qadriyatlar diniy e’tiqod, turmush tarzi va sharoiti, tabiiy sharoit nuqtai nazaridan ma’lum bir xalq yoki millatgagina xos bo‘lishi mumkin. SHu boisdan tilning metaforik tizimi ham qadriyatlarni aks ettirar ekan, ularni ham shu nuqtai nazardan baholash lozim bo‘ladi. YUqorida har qanday metafora o‘zicha kichik

¹ Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. Л., 1940. – С. 146.

² Мусаева Е.М. Миф и метафора // Фразеология в дискурсах разных типов. Вестник ИГЛУ. Сер. Лингвистика. Иркутск: ИГЛУ, 2000. – С. 113.

³ Лагута О.Н. Лингвометафорология: основные подходы.

mif ekanligi ta'kidlandi. Biroq miflarning ilk insoniyatga xosligi, keyingi metaforalarning umuminsoniy xarakter kasb etishini inkor qilmaydi, albatta. Shuningdek, qadriyatlarni xolis baholash ularning qaysi ijtimoiy guruh manfaatlariga muvofiqligini ham tan olishni taqozo qiladi. Masalan, diniy ekstremistlarga xos bo'lgan qadriyatlar, mustamlakachilarga xos bo'lgan qadriyatlar, fohishalarga xos bo'lgan qadriyatlar va h.

O.N.Laguta yuqorida zikr etilgan asarida qadriyatlarni: a) umumahamiyatli; b) subkardinal; v) etnosga xos kabi turlarga bo'ladi.

Olim umumahamiyatli qadriyatlar sifatida shunday qadriyatlarni tushunadiki, unga ko'ra, ularga putur yetishi individni yashash, fikrlash, maqsadlari yo'lida harakat qilish huquqlaridan mahrum qiladi. Bular sirasiga hayot, sog'liq, ozodlik, nasl qoldirish kabilarni kiritadi.

Ikkinchi tur qadriyatlarni subkardinal qadriyatlar sifatida baholar ekan, tadqiqotchi umumahamiyatli qadriyatlarshga putur yetishi ikkinchi tur qadriyatlarni ham xavf ostiga olishini ta'kidlaydi. Ular sirasiga huquqiy va siyosiy ozodlik, matbuot va erkinligi, saylov va hukumat vakillik organlarida ishtirok etish, sud mustaqilligi, ekologik qadriyatlar (masalan, toza havo, suv, tuproq yaroqliligi, asosiy resurslar yaroqliligi kabilar.

Uchinchi tur qadriyatlar kishilarning ong va xulq xususiyatlarini belgilaydi va ulardan kelib chiqadi. V.I.Karasikning uqtirishicha, lingvokulturologiya ana shu qadriyatlarni ifodalovchilari bo'lgan metaforizasiya jarayoniga e'tibor qaratishi, metaforik hodisalarni etnik qadriyat, milliy boylik, milliy madaniyat ifodalovchisi sifatida o'rganishi lozim. Chunki o'zga madaniyat, o'zga dunyo ifodalovchisi bo'lgan metaforani o'rganish, ilmiy tadqiq qilish etnoslararo, millatlararo, xalqlaro o'zaro tushunishning kognitiv zaminini tayyorlaydi.

Mamlakat bir millatli bo'lsa, uning yaxlit tan olingan qadriyatlari tizimi boshqa mamlakat xalqi tomonidan tushunilishi muammosi qoladi. Masalan, xitoy, koreys, arab xalqlari qadriyatlari misolida buni kuzatish mumkin va

qadriyatlarning talqini mamlakatlararo o‘zaro tushunish sari yo‘naltiriladi. Ammo ko‘p millatli mamlakatlarda qadriyatlarning tushunilishi va ifodalanishi muammosi ikkiyoqlamaligi bilan xarakterlanadi. Masalan, Rossiya, O‘zbekiston, Belarus, Ukraina kabi davlatlarda umummilliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan muvofiq keladi. Biroq sof milliy qadriyatlar va madaniyatning lisoniy ifodasi bevosita ana shu milliy ong va munosbat bilan belgilanganligi sababli ularning talqini mamlakat uchun ichki va tashqi munosabatlarga xizmat qilishi tabiiy.

O.N.Lagutaning zikr etilgan asarda ilgari surgan qarashlariga ko‘ra, monososium madaniyatlararo kommunikasiyada ob‘yektlar, voqealar, shaxslar va h. haqidagi bilimlar qadriyatlar sifatida shu jamiyatdagi bir lisoniy mansubiyatga ega barcha qatlamlarni birlashtiradi. Ammo ular zamiridagi ayrim holatlar ma‘lum darajada farq qiladi va qarashlardagi farqlar hatto madaniyatlararo tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, Suvorov polyaklar va ruslar uchun, Borodino ruslar va fransuzlar uchun, CHingizxon mo‘g‘ullar va ruslar uchun, Xirosima yaponlar va amerikaliklar uchun turli qiymatdagi bilim va qadriyat ob‘yektlari sanaladi va ular asosidagi metaforik qo‘llanishlar ham ular tomonidan turlicha tushuniladi. Qomusiy lug‘atlarda ular turlicha talqinlarga ega. Krasnix iayd etganidek, Don Kixot turli millatlarda turlicha qabul qilinadi. “Ruslar uchun Don Kixot – adolat uchun kurashuvchi qo‘rqmas, shavkatli, botir, shu bilan birga sodda, go‘l kishi sifatida e’tirof etiladi. Ispanlarning o‘zi uchun esa u uncha aqlli bo‘lmagan, behuda ishlar bilan shug‘ullanuvchi kishi. SHvedlar yoki amerikaliklar uchun Don Kixot – umuman befoyda ishlar uchun vaqt sarflovchi, samarasiz ish qiluvchi bir kishi sifatida tanish.”¹ Demak, *Don Kixot* metaforik birligi qo‘llanadigan bo‘lsa, uning boshqa millat tomonidan qabul qilinishi rus tafakkuri o‘lchamlaridan tashqariga chiqadi. Amir Temur o‘zbek

¹ Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. М.: Гнозис, 2002. – С.89–90.

millati, fransuzlar va ruslar uchun ulkan xaloskor sifatida qabul qilinadi. Biroq usmonli turklar uchun unga munosbat bunday bo'lmashligi tayin. Demak, Amir Temur shaxsi nomining metaforik qo'llanilishi ham nafaqat milliy, balki umuminsoniy manfaatlarning ayrim jihatlaridan kelib chiqqan holda baholanishi lozim.

Bu haqda yorqinroq tasavvur hosil qilish uchun Ch.Aytmatov va M.SHoxonovlarning “Qoyada qolgan ovchining ko‘z yoshlari” asaridan keltirilgan bir parchani keltirish o‘rinli: “Mening do‘stim, Mo‘g‘ilistonning birinchi kosmonavti Jugdemediyn Gurragechani Siz ham tanisangiz kerak. ... O‘sha kosmonavtni o‘z yurtimga taklif etdim-da, yo‘l-yo‘lakay Sergey Tereshchenko huzuriga kirdim.

– Mo‘g‘ul do‘stingga O‘trorni va boshqa shaharlarning xarobalarini ko‘rsatkin. U o‘zining bobolari yer yuzidan supurib tashlagan shahar qoldiqlarini ko‘rib qo‘ysin. Balki, u o‘ylanib qolar, — dedi Sergey miyig‘ida kulib.

O‘sha payt shoshib turganim uchunmi, Sergeyning hazilomuz gaplariga unchalik e’tibor bermadim. Oradan ancha-muncha fursat utgach, bu haqda jiddiy o‘ylab ko‘rishga majbur bo‘ldim.

Nihoyat, biz O‘tror tuprog‘iga qadam qo‘ydik. Tuman rahbarlari bizni quchoq ochib qarshi oldilar. YAqinda barpo etilgan Forobiy nomidagi Madaniyat saroyida oqshom payti biz bilan uchrashuv rejalashtirildi. Safar arafasida Qonjigit Sizdiqov bilan Abulqosim Qulumbetovdan menga «O‘trorning faxriy fuqarosi» unvoni berilgani to‘g‘risidagi xushxabarni eshitgan edim. Safardosh do‘stim ham esimga tushdi. O‘sha paytlari yer kurrasini aylanib chiqib, qaytib tushgan kosmonavtga qo‘ngan joyining «faxriy fuqarosi» unvoni berilardi. An’ana shunday edi. Olmaotadagi To‘qimachilik fabrikasi Sovet Ittifoqidagi birinchi kosmonavt-ayol Tereshkova nomida bo‘lsa, Qozog‘istondagi yuzlab maktablar, ko‘chalar Gagarin, Titov, Nikolaev nomlarida edi. SHuning uchun o‘yladimki, agar Gurragechani Janubiy Qozog‘istonga, boz ustiga, O‘trorga ilk bora

kelayotganini inobatga olib, unga ham faxriy unvon in'om etilsa, birov e'tiroz bildirmasa kerak. Mafkura nuqtai nazaridan bunday hodisa xalqlar do'stligining ko'rinishi sifatida baholanardi. Biroq, o'sha paytlari tuman rahbari bo'lib turgan Muhammadqosim SHakenov bir oz chaynalib qoldi

— Muxtor, sizning fikr-mulohazalaringizga qo'shilaman. Lekin, keling, avval bu masalani oqsoqollar bilan muhokama etib ko'raylik, — dedi u.

...O'lik shahar bilan xayolan suhbat qurib, nihoyat, pastlikka enib bordik. Ko'm-ko'k o'tloqqa gilamlar, to'shaklar yozilgan, dasturxon bezatilgan, mis samovar vaqirlab qaynayotgan edi. Chingizxon misli ko'rilmagan shafqatsizlik bilan mening otayurtimni tuproqqa qorib, shu yerlik aholining tuxumini quritib, insoniyat taraqqiyotini yuz yil orqaga itqitib yuborgach, oradan yetti yarim asr vaqt o'tib, biz o'trorliklar avlodi bir dasturxon atrofida Chingizxonning avlodi bilan do'stona suhbatlashib o'tirishimizni kim xayoliga keltiribdi deysiz! Vaholanki, biz aynan o'sha yovuz daho kulini ko'kka sovurgan shahar xarobalari poyida, bir-birimizga hech qanday dushmanlikni ravo ko'rmagan holda bamaylixtor o'tirardik. Ko'p o'tmasdan bizning huzurimizga bir nechta otliq mo'ysafid kelib, egardan tushdi.

...Salom-alikdan so'ng, ular meni bir chetga boshlab chiqdilar.

— Muxtorjon, tuman rahbariyatiga sen bir iltimos bilan murojaat qilgan ekansan. Xalqimiz odatiga ko'ra, sening do'sting, mehmoning bo'lmish Mo'g'ilistonning birinchi kosmonavtiga qo'limizdan kelgancha izzat-ikrom ko'rsatamiz. Lekin, sen taklif etganday, unga O'torning faxriy fuqarosi unvonini berish masalasiga kelsak... Agar uning ota-bobolari vahshiylik qilmaganda bizning O'tror shu kunlarda ham qo'r to'kib turmasmidi? Zangor minoralarini ko'rib, ko'zlarimiz quvonmasmidi? O'trordan tashqari, Sirdaryo havzasidagi yer yuzasidan supurib tashlangan qirq ikki shahar to'g'risida nima deysan? To'g'ri, bu ishlarda Gurragechaning nima gunohi bor, deb so'rashing mumkin. O'zimiz

ham juda yaxshi bilamiz, bu ishlar uchun u gunohkor emas. Lekin, baribir otabobolarining qilmishi uchun Gurragcha ham javobgar. Chunki, uning tomirida oz bo'lsa-da bobolarining qoni oqyapti. Bizning gaplarimizni tarix xotirasi haqqi-hurmati aytiladi deb qabul qilgin. Eski gina-kuduratlarni dilga tugib yurish bizning odatimiz emas. Biroq, tarixni butunlay unutib yubormasligimiz kerak. Shularni o'ylab ko'r.

Uch mo'ysafid otlariga minishib, kelgan tomonlariga qaytib ketishdi.

O'sha payt ko'zlarim yarq etib ochilib ketganday bo'ldi. Xudoyim-ey, shoir degan nomim bo'lishiga qaramasdan, bu qariyalar oldida naqadar havoyi ekanman. Axir, xalq xotirasini aynan shular avaylab-asrayaptilar-ku! Otamni esladim. Ma'lum bo'lishicha, O'tror to'g'risida otam so'ylab bergan rivoyatlarning ma'nosini tushunmagan ekanman. Gap buyoqda ekan...

Keyinchalik, mo'ysafidlar bilan bo'lgan suhbat mazmunini Gurragchaga so'zlab berdim. U chin dildan bunday dedi:

— Qadrli shoir do'stim, sening baxting shundaki, ovulda ana shunaqa donishmand bobolaring bor. Ular seni xatoliklardan asraydilar, milliy tarix xotirasini aslo unutmaydilar.”

Ko'rinadiki, Gurragcha o'z xalqi uchun qanchalik aziz va mukarram bo'lmasin, o'z millatining eng dovqur yigitlari uchun uning ismi metaforik atama sifatida ishlatilmasin, u o'zga xalqlar, xususan markaziy Osiyo turkiylari uchun o'ta salbiy bo'yoqdor so'z sifatida qabul qilinadi. Bu ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy va abadiy qadriyatlar tarkibiga mansub milliy konseptual birlik bo'lib, uning zamirido'agi bilim majmui hududiy va milliy xoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Shuningdek, bir millat tarkibidagi turli sotsial qatlamlarning ham o'ziga xos qadriyatlari tizimi bo'lib, yuqorida aytilganidek, bu qatlamlardagi metaforik qo'llanishlar keskin bo'lmasa-da, farqlanishi tabiiy.

Shevalararo leksik farqlarda ham metaforik xoslanishlar shu sheva vakillarining til vositasida shakllangan etnik ongi va qadriyatlari silsilasi bilan belgilanadi. Masalan, *shirini* metaforik qo'llanishi Shirin qishlog'idan tashqarida ma'lum bir kognitiv va komik funksiya bajaradi. Ammo shu hududda yashovchilar uchun uning bu vazifasi mutlaqo yuzaga chiqmaydi. Yoki Termiz shevasida *istamoq* fe'lining "qidirmoq" ma'nosi asosidagi metaforik ma'nosi boshqa hududlarda uqilmasdan kolishi tabiiy.

Aytilganlar esa metaforik qo'llanishlarni, metaforik ko'chimlarni talqin qilishda, ayniqsa, tarjima lug'atlarda tavsiflashda bunga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. O.N.Laguta ta'kidlaganidek, fransuz tilida *fashist* so'zi muloqotda qo'pol va avtoritar munosabatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo uni nemis tiliga tarjima qilishda "dixotomiya teoremasi"dan foydalaniladi va uning o'rniga Nazi birligidan foydalanish muloqot madaniyatini ta'minlashga xizmat qilishi ma'lum bo'ladi.

Ko'rinadiki, madaniyatlar to'qnashuvi e'tiborsizlik bilan metaforalarni tarjima qilishda ham yuz beradi va bu holat milliy qadriyatlarning yerga urilishini, tahqirlanishi keltirib chiqaradi. SHuning uchun ko'chma ma'xnolar sirasida yaqqol milliyliigi va milliy ruhiyatni aks etitirish bilan ajralib turadigan metaforik ko'chimlarni o'rganish masalasida "parolizasiya" qonuniyatiga tayanish lozim bo'ladi.

Metaforik ma'noda milliy sema masalasi. Har bir tilda shu til sohiblarining madaniy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy tafakkuri, dunyoqarashi, ruhi, turmush tarzi aks etadi va aytilganidek, til ularga aks ta'sir ko'rsatib, sohibi ongining va tafakkur tarzining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. SHu boisdan V.f.Humboldt har bir tilni tadqiq qilishni ularning ichki qurilishidan boshlamoq kerak degan edi.

Tillarda muqobil va nomuqobil birliklar mavjud. Bu haqda gap ketar ekan, baynalmilal so'zlar to'g'risida to'xtalib o'tirishga hojat yo'q. Biroq har bir tilning

o‘zida shunday birliklar borki, ular shaklan boshqa-boshqa bo‘lishsa-da, semantik jihatdan ma’lum darajada yaqin bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *kitob*, *daftar*, *qalam*, *o‘chirg‘ich* so‘zlari ingliz tilida ham ana shunday semantik qiymatga ega bo‘lgan so‘zlar asosidagina beriladi. Bunda, albatta, so‘zlarning bosh, asosiy denotativ ma’nosi nazarda tutiladi. Biroq bu so‘zlar ko‘chma ma’no kasb etar, ya’ni metaforik ma’no ifodalar ekan, endi ulardan tillararo umumiylikni emas, balki farqlarni kuzatish lozim bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *lola* leksemasini olaylik. U ikki tomli “O‘zbek tilining izohli Lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

“LOLA [f-t] 1 *bot*. Yirik chiroyli gulli bahorgi o‘simlik va qizil, sariq yoki targ‘il guli. *Tog‘da ochilib lola*, ham sabza bahor o‘lsa. Muqimiy.

2 ko‘chma poet. Lola rangli, qizil, qirmizi. *Ochilmoq istarkan lola dudoqlar*, *Jovdirab ko‘zlaring nega o‘ynoqlar*. Uyg‘un. *Lola yanglig‘ orazingni men ko‘rib tasvirda*, *Mubtalo bo‘lmoqlig‘im yozmish ekan taqdirda*. Hamza.

3 Lola (xotin qizlar ismi)”¹

Leksema ma’nolaridan birinchi ilmiy semema va uni shuning uchun universal semema sifatida baholash mumkin. Ammo bunda ham milliy dunyoqarash aks etganligini dalillovchi jihat yo‘q emas. Zero, umuman dunyoda oq, qora lolalarning ham borligi haqida dalillar bor. O‘zbekistonda, aniqrog‘i, Markaziy Osiyoda, qora lolaning mavjudligi fanga ma’lum emas.

Keyingi ikki sememaga nisbatan sof milliy mentallik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘linganligi ma’lum. SHarqda inson yuzining qizilga moyilligi ko‘rkamlilik sanaladi. Buni “Mehrobdan chayon” romanida Abdulla Qodiriyning Ra’no qiyofasini tavsiflash uchun qo‘llagan lola so‘zi misolida aniq amin bo‘lish mumkin: ...*SHu kundan boshlab Lolani ko‘rish hajriga tushdim... Burnidagi buloqisidan boshqa (agar buloqi husnga qo‘shulsa) «Lola»likka arziydirgan hech gap yo‘q.* (A.Qodiriy, “Mehrobdan chayon”). O‘zbek turmush tarzida qizil rang hasham ranglaridan biri sanaladi. SHu boisdan kiyim, uy anjomlari, ya’ni

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. —М.:Русский язык, 1981. — 435.

gilam, so‘zana kabilarda ham qizil rangga e‘tibor katta bo‘lib, *lola* so‘zi rang ifodalovchi birlik sifatida qo‘llanadi: *Zol juda nafis ishlangan edi: oltin qandildagi ellilab sham'larning nuri bilan munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko‘k-qizil, oq-pushti, sariq-qora gullari yulduzlardek yashnab, uyga bir xayoliylik berar edilar. Uyning ostig‘a to‘shalgan qizil lola gullik gilam kishini go‘yo bir chamanda his etdirar edi. Zolning to‘rida, kichkina haldor bir eshikcha yonida, atlas ko‘rpacha ustida o‘n besh yoshlar chamaliq, qizil duxobadan kiyingan ko‘rkam bir o‘g‘lon palov yeb turar edi.* (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”). Bu matnda tasvir markazida *lola* so‘zi turadi va u xonadagi hashamatni tasvirlashda yadro vosita vazifasini bajargan. Boshqa rang va ko‘rinish bildiruvchi (*ko‘k-qizil, qizil, ko‘rkam, chamanda*) so‘zlar ushbu so‘z atrofida uyushgan. Bunday tasvirni mentalitetida *lola* tushunchasi bilan bog‘liq qadriyatlar bo‘lmagan xalqlar tilida ko‘rish mumkin emas.

Spuningdek, leksemasining ana shu sememasi asosidagi tushunchalar milliy qadriyatlar sirasidan ko‘proq o‘rin olganligi bois, unga tayanuvchi yasama so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin va ularning barchasida milliy konnotativ bo‘yoqni kuzatamiz: *lolarang, lolagun, lolaqizg‘aldoq* kabi.

*Bahor senikidir,
Yugur entikib,
Yugur adirlarning lolazoriga.
Men esa quvonay ko‘zimni tikib,
Tog‘larning hayotbaxsh, toza qoriga.*

(Abdulla Oripov)

*G‘anim der — yaxshilik qilsang-da garchi;
Hamma yoqni bossa alaf va ajriq,
Bechora lolaning holin ko‘rsang-chi.*

(Abdulla Oripov)

Lolaning nozikligi, mo‘rtligi, pokligi, beozorligi shuningdek, bechoraligi kabi tushunchalar asosida shakllangan o‘zbekona qadriyatlar so‘zning metoforik ma’nosiga asos bo‘lgan.

Arg‘uvon so‘zi misolida ham milliy qadriyat va bahoning o‘zbekona ifodasini ko‘rish mumkin. So‘zning “O‘zbek tilining izohli Lug‘ati”dagi tavsifi quyidagicha:

“ARG‘UVON [f-t] 1 ot Yog‘ochi o‘ymakorlida ishlatiladigan dukkakli daraxt. *Ibodulla... otni bino oldidagi qator arg‘uvon daraxtlarining biriga bog‘lab qo‘ydi.* H.G‘ulom, Mash‘al.

2 sft To‘q qizil, qip-qizil. Arg‘uvon yuz, arg‘uvon shafaq.”¹

O‘zbek badiiy tafakkurida *arg‘uvon* so‘zi rang semasidan ko‘ra, ko‘rinish semasi bilan metaforik qiymat kasb etadi.

*Yuksak arg‘uvonning uchida hilol
Paxmoq bulutlarni etadi nimta.
Qaydadir shoir kuylaydi behol:
— Ko‘nglim ham bu kecha oyday yarimta...*

(Abdulla Oripov)

*Sen — bahor ne‘mati, oddiy bir ko‘kat,
Poyang arg‘uvoniy, barging yapaloq.
Quvondim, men seni ko‘rsam har fursat,
Har ko‘klam men seni kutdim, ismaloq.*

(Abdulla Oripov)

Aytilganidek, so‘zlarning turli tillardagi asosiy semalari mos kelsa-da, o‘ziga xos milliy semalari mavjud bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *ota* leksemasi ingliz tilidagi *father* leksemasi bilan umumiy arxisememaga ega. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *ota* leksemasining semantik strukturasi quyidagi izohlangan:

¹ Ўзбек тилининг изоҳли Луғати. 2 томлик. 1-том. —М.:Русский язык, 1981. — Б. 57.

“**OTA 1** Farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan);

2 Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda ishlatiladi;

3 O‘g‘il bolani erkalatish uchun ishlatiladi;

4 *ko‘chma* Biror ish yoki harakatni boshlab bergan unga asos solgan kishi haqida.

5 *ko‘chma* Mehribon boshliq, rahnamo haqida.

6 El-boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug‘ zot haqida.

“Oxford dictionary”da *father* leksemasi esa quyidagicha izohlangan:

***fa|ther* 1** a male parent;

2 a person, who is like a father;

3 a) a male ancestor; forefather;

b) a thing that is a cause of course;

4 *figurativ* a man who did important work as a maker or leader;

5 **Father**, a title of respect used in addressing a priest or other clergymen;

6 a clergymen having this title;

7 a title of respect for an old man;

8 a senator of ancient Rome.

O‘zbek va ingliz tillaridagi muqobil sememalar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

O‘zbek tilida:

1 Farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan)

Ingliz tilida:

1 a male parent;

O‘zbek tilida:

6 El-boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug‘ zot haqida.

Ingliz tilida:

7 a title of respect for an old man;

O‘zbek tilida:

4 *ko'chma* Biror ish yoki harakatni boshlab bergan unga asos solgan kishi haqida.

Ingliz tilida:

4 *figurativ* a man who did important work as a maker or leader.

Muqobil leksemalarning bosh ma'nolarida to'liq muvofiqlik kuzatiladi. Biroq hosila ma'nolarda, ular milliy tafakkur asosidagi ko'chimlar bo'lganligi sababli, farqlar kuzatila boshlaydi.

Tillardagi qiyoslanayotgan leksemalarning mazkur semalari asosan muqobil bo'lib, har ikki tilda bir xil denotativ asosga ega. Biroq ularning izohida ma'lum bir farqlar kuzatiladi. Xususan, birinchi semema o'zbek tilida "farzandli bola-chaqali er kishi" tarzida berilgan bo'lsa, ingliz tilida uning muqobili "a male parent" ko'rinishida tavsiflangan. O'zbekcha tavsifda lisoniy tejam qoidasiga amal qilinmagan. Aniqrog'i, 2 ta so'z bilan berish mumkin bo'lgan holat ("farzandli er") uchun ortiqcha 2 ta so'z (binobarin, uning biri qo'shma so'z) qo'llangan.

Shuningdek, muqobil leksemalardagi qayd qilingan "biror ish yoki harakatni boshlab bergan unga asos solgan kishi haqida" (o'zbek tilida) va "a man who did important work as a maker or leader" (ingliz tilida) to'liq muvofiqlik kuzatiladi.

Qolgan barcha sememalarda milliy semalar yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin.

Tilshunoslikda milliy sema masalasi terminologik apparatdan o'rin olmagan. Biroq har bir tilda shu til sohibining dunyoqarashi, turmush tarzi aks etar ekan, ularni aks ettiruvchi semantik tarkibiy qismga milliy sema atamasini qo'llash maqsadga muvofiq. YUqorida qayd etilgan "YOshi katta kishilarga murojaat qilishda ishlatiladi", "O'g'il bolani erkalatish uchun ishlatiladi" (o'zbek tilida) semalarida ana shunday milliy semaning yaqqol namunasi ko'zga

tashlanadi. O'zbek uchun farzand otadek aziz. Shu bois farzandini erkalatganda, *ota* so'zini ishlatish keng tarqalgan. Alohida ta'qidlash kerakki, o'zbek o'g'lini ota deb atashda bir nozik jihat bor. Otasi hayot bo'lgan kishi o'z o'g'lini ota deb atamaydi. Bunday atash otasi hayotdan o'tib ketgan kishilar uchun joiz. Bu ota va farzand munosabatining nechog'liq muqadassisligi bilan belgilanadi. Ana shu holat leksema sememasida milliy sema sifatida namoyon bo'lgan bo'lib, ingliz tilida, ularning turmush tarzi va hayotida, dunyoqarashida ushbu holat bo'lmaganligi sababli so'z semantik strukturasida va uning leksikografik talqinida ham o'z ifodasini topmagan. Shuningdek, o'zbek mentalitetiga xos holatlarni aks ettiruvchi *ota* so'zi ishtirok etgan ko'plab barqaror birikmalar (*"Bor otangga, bor onangga"*, *"Ota go'ri qozixonami"*, *"Otangga rahmat"*, *"Otang yaxshi, onang yaxshi"*), bu so'z asosida yasalgan qator so'zlar (*otabezori, otabek, ota-bobo, otalarcha, otaliq, otamlamoq, otamlashmoq, ota-ona, otaxon*) asosidagi milliy hissiyot, milliy munosabat va idrok faqat o'zbekka xos. Anglashilgan ma'noni unga putur yetkazmasdan boshqa, xususan, ingliz tiliga tarjima qilib bo'lmaydi. SHu boisdan uni milliy sema sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Milliy sema ba'zan denotativ ham, konnotativ ham bo'lishi mumkin. Agar so'z atayotgan hodisa uning atash semalariga to'g'ri kelsa, u denotativ sema sifatida baholanadi. Masalan, farzandni *ota* so'zi bilan atash. Ammo farzand kinoya asosida *ota* so'zi bilan ataladigan bo'lsa, so'z va denotat orasida farq kuzatiladi. Hatto u butunlay zid bo'ladi. Bunda konnotativ sema milliy sema sifatida namoyon bo'ladi.

So'zlarning milliy semalari ularning lisoniy qiymatini tashkil qiladi. SHu boidan ularni o'rganayotganda tilshunos Ferdinand de Sossyur asos solgan lisoniy qiymat tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1.2. Metafora talqini va zamonaviy metaforologiya muammolari

Metafora talqini haqida. Metaforaning badiiy yoki lingvistik o'rganilishi Arastu davriga borib taqaladi. Faylasuf "Poetika" asarida metaforani borliqdagi atalmishlarning o'xshashligi asosida ifodalovchi ma'nosining qayta tushunilishi sifatida talqin qiladi. Tilshunoslar bu tushuncha fanimizga ritorika orqali o'zlashganligini ta'kidlashadi. Bu atamani birinchi bo'lib Izokratning "Evagorus" deb nomlangan asarida qo'llangani haqida ma'lumotlar bor. XX asrga kelib esa u haqiqiy ilmiy tadqiq ob'yektiga aylandi, tilning ajralmas va o'ziga xos fenomenlaridan biri sifatida lingvistik o'rganila boshladi.

Bugungi kunda metafora tilshunoslikda hatto fan yo'nalishi darajasiga ko'tarildi va metaforologiya bo'yicha qilingan va amalga oshirilayotgan ishlarni sanash va qayd qilish imkoni cheklanib bormoqda. Bajarilayotgan ishlar tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan tuashuvi natijasida yangi-yangi muammolar kun tartibiga qo'yilmoqda. Tilshunoslarning umumiy fikrlariga ko'ra bugungi kunda metaforologiyaning quyidagi yo'nalishlari mavjudligini e'tirof etish mumkin:

1. Tavsifiy yondashuv.

2. Leksikografik yondashuv.

Bu yo'nalishlarning har biri o'z ichida yangi-yangi yondashuvlarni qamrab oladi va ularning tadqiq predmeti va metodlari o'ziga xosdir. Xususan, tavsifiy yondashuv yo'nalishi keng qamrovli bo'lib, metaforani ilmiy o'rganishning asosiy yondashuvlarini o'z ichiga oladi. Ular sirasida quyidagilarni sanash mumkin:

1. Metaforaning germeneytik tadqiqi.

2. Metaforaning lingvoaksiologik tadqiqi.

3. Metaforaning lingvodidaktik tadqiqi.

Leksikografik yoʻnalish esa bir tilli lugʻatlarda yoki tarjima lugʻatlarida metaforaning tavsiflash bilan ixtisoslashgan koʻrinishlar kasb etadi.

Metaforaning germenevtik tadqiqi muammolari qadimiy va hamisha navqiron holatdaligi bilan boshqa yoʻnalishlardan ajralib turadi. Metaforik maʼnoning lisoniy va kognitiv asosini aniqlash, sharhlash germenevtik yondashuvning asosini tashkil etadi. Muqaddas kitoblar yoki boshqa yozma yodgorliklardagi metaforik maʼnolarni sharhlash germenevtikada ustuvor sohalardan biri hisoblanadi. Bu haqda tilshunos P.Riker quyidagilarni yozadi: “germenevtika deganda men matnlarni sharhlash, talqin qilishda ularni tushunish amalaiyoti mexanizmini anglayman. *Germenevtika* atamasi matn talqinlarining izchil, bosqichma-bosqich amalga oshirilishidan boshqa narsani bildirmaydi. Ketma-ketlik, bosqichma-bosqichlilik deganda men quyidagilarni tushunaman: tushuntirish, sharh deganda bevosita muayyan matnga nisbatan qoʻllaniladigan usullar majmui tushunilsa, germenevtika tushuntirishning umumiy qoidalariga nisbatan qoʻllanadigan ikkinchi darajali fan hisoblanadi, SHunday qilib, interpretasiya (talqin) va tushunish orasida munosabat oʻrnatmoq lozim boʻladi. Tushunish deganda biz bir ong tomonidan uzatiladigan belgi maʼnolarini boshqa ong tomonidan ularning tashqi ifodalovchilari (noverbal vositalar, nutq) vositasida anglanish sanʼatini nazarda tutamiz. Tushunishdan maqsad – ifodalovchidan belgining mohiyatiga borish, ifodalovchi orqali undan tashqariga chiqish demakdir. Tushunishdan talqinga oʻtish esa belgining moddiy asosga egaligi, bu moddiy asosning modeli yozuv ekanligi bilan belgilanadi. Har qanday dogʻ, iz, har qanday hujjat yoki yodgorlik, har qanday arxiv yozuv bilan qaydlangan boʻladi va u tadqiqotchini talqinga chorlaydi. SHunga qatʼiy rioya qilish kerakki, *tushunish* atamasi bir ongning ikkinchi ongni tashqi, moddiy ifodalovchi orqali oddiy anglashi boʻlsa, *talqin*, *tushuntirish* atamasini qaydlangan, belgining yozma shakliga yoʻnaltirilgan tushunishga nisbatan qoʻllash maqsadga muvofiqdir.”

Metafora talqini, metaforani tushuntirish matn orqali amalga oshar ekan, uni hermenevtik yondashuv sifatida baholash to'g'ridir. Tilshunos O.N.Laguta Iso alayhissalomga nisbatan aytilgan *iz'yasni nam pritchu* iborasi zamirida borliqni anglash ehtiyoji mujassamlashganligini qayd qiladi. Qo'llangan metafora tushuntirish (talqin) natijasi o'laroq ramz darajasiga ko'tariladi. Metaforik matndagi metafora va ramzlar sistemasi eng murakkab hodisalarni ham tushuntirib berish darajasida bo'ladi." Konfessional metaforalarni milliy metaforik qadriyatlar asosida tushuntirib berish muammosi esa maxsus maxsus tadqiq qilinishi lozimligi tilshunoslar tomonidan aytilgan.

Ko'rinadiki, metaforaning hermenevtik tadqiqi masalasi milliy va diniy qadriyatlar tarixi bilan bog'lanib ketadi. Bu masala bilan metaforologiyaning lingvoaksiologik yo'nalishi mashg'ul bo'ladi. Bu borada Dj.Lakoff, M.Djonson, L.Laudov, Rozov, L.B.Alberti, M.Veber, A.N.Baranov, V.I.Karasik, Sklyarevskaya, Dubrovina, Praxonskiy, Filyushin, N.A.Lukyanova kabilarning olib borgan tadqiqotlari e'tiborga molikdir.

Lingvoaksiologik qarashlar zaminida metaforani milliy mental fenomen sifatida tan olish yotadi. Dj.Lakoff va M.Djonson ta'kidlashganidek, nisbatan asosiy va fundamental qadriyatlar ushbu madaniyatning asosiy tushunchalarining metaforik strukturasi bilan to'la muvofiq keladi." Ular bir nechta sosiologik tajribalar o'tkazishdi. Xususan, "baland/past" makon metaforalari asosida qator aksiologik modellar yaratishgani tilshunoslikda qayd etilgan. Olimlar G'arbiy yevropa va Shimoliy Amerika madaniy hududlarida quyidagicha namoyon bo'lishini aniqlashdi: "ko'p (miqdor) – yaxshi", "kattaroq (o'lcham) – yaxshi". Metafora bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lib, uni o'qitish, til ta'limi samaradorligi nuqtai nazaridan, xususan, xorijiy tillarni o'rgatish talabi asosida talqin qilish lingvodidaktik yo'nalishning mohiyatini tashkil etadi. Metafora milliy mental xarakterga ega bo'lganligi

sababli uni o'qitish milliy xarakterni ochish va tasiflash ishiga bo'ysundirilgan bo'lib, murakkab didaktik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyo tilshunosligida metaforik lingvodidaktika masalasi bo'yicha N.I.Jinkin, ye.M.Verezhagin va V.G.Kostomarov, ye.D.Averina kabilarning tadqiqotlari e'tiborlidir.

O'zga ma'naviy olam metaforikasini o'qitish bevosita tarjima amaliyoti va nazariyasi bilan bog'lanib ketadi. Xususan, yuqorida ta'kidlangan milliy tarixiy shaxslar nomining o'zga xalqlar tomonidan metaforik asosda qabul qilinishi yoki ularga metaforik asosda uzatish chuqur va atrorflicha kognisiyani namoyon qiladi. Zero, kognitiv konseptning ham milliy xarakterga ega bo'lishi, boshqacha aytganda, bilimlarning milliy xoslanganligi bu konseptlarni qayta ifodalovchi metaforik nomlar ham ham ob'yektiv voqelikka, ham milliy konseptual bilimga mos kelishi lozim.

Metaforik ma'noning leksikografik talqini masalasi tilshunosligimizda qator muammolar bilan yo'g'rilgan va behad murakkab metaforik ob'yekt ekanligi bilan xarakterlanadi. Xususan, o'simlik nomlarini ifodalovchi metaforik ma'noli so'zlarning izohli lug'atlardagi talqini masalasida turli xilliklar, bir mustahkam tamoyilga asoslanilmaganligini ko'rish mumkin. Masalan, "O'zbek tilining izohli Lug'ati"da *lola* so'zi tavsifida uning metaforik asosda ism sifatida qo'llanilishi aytiladi, biroq *atirgul*, *chinnigul* so'zlari talqinida ularning ism sifatida ishlatilishi haqida fikr bildirilmaydi. Misol sifatida *sarv* va *shamshod* so'zlarining 2 tomli "O'zbek tilining izohli Lug'ati"dagi talqiniga murojaat qilaylik.

“**SARV** [f-t] 1 Janub mamlakatlarida o'sadigan igna bargli doim yashil tik daraxt. Sarv archa archalarning sarvga o'xshash tik o'sadigan bir turi.

2 *ko'chma poet*. Qaddi-qomati kelishgan, zushqomat ayol haqida. *Jonga huzur, dilga farog'at, Sarvim yaxshi, sunbulim yaxshi*. O.Yunus. **Sarvi noz** go'zal va serishva ayol; nozanin, sevikli yor. **Sarvi ravon** (yoki xiromon) qaddi-qomati

kelishgan, go‘zal va yurishi chiroyli ayol; nozanin, sevikli yor. Sarvi qomat (yoki qad) qaddi-qomati kelishgan; xushqad, xushqomat. *Yuzi gul, sarvi qomat, sochi sunbul, Ko‘zi nargiz kabi mastona, bir kel.* Habibiy.”¹

So‘zning ikki sememasi ajratilgan bo‘lib, ikkinchi semema birinchi semema asosida paydo bo‘lgan metaforik ko‘chma ma‘nodir. Bunda metaforizasiya ob‘yektlarning tashqi ko‘rinishi o‘xshashligi asosida amalga oshirilgan. Bu ma‘noning ijtimoiy xoslanganligi uni alohida semema sifatida ajratishga asos bo‘lgan. Biroq quyida keltiriladigan *shamshod* so‘zining metaforik ko‘chma ma‘nosi talqini mazkur so‘znikidan birmuncha farq qiladi:

“**SHAMSHOD** [f-t] Yog‘ochi qattiq, doim yashil, tik o‘sadigan janubiy daraxt yoki buta. SHamshod ko‘chat. Shamshod yoki shamshod qomat (yoki qad) *poet*. Qaddi qomati kelishgan, go‘zal. Xotin-qiz eliga dardu balo paranji, SHamshod qadlarini duto qildi paranji. G‘.G‘ulom. Zuhroning shahlo ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi, shamshod qomati tebrandi. A.Muhiddin, Chap cho‘ntak.

Ko‘rinadiki, birinchi leksemada metaforizasiya inobatga olingan va leksikografik talqinga “edirilgan” bo‘lsa, ikkinchi leksemada u inobatga olingan, biroq leksikografik talqinda o‘rin olmaganligiga guvoh bo‘ldik. Demak, bunda metaforik ko‘chma ma‘noni har doim ham farqlash izchilligi ko‘zga tashlanmaydi.

Chinor leksemasida esa uning uzoq umr timsoli sifatida xalqimiz ongi va shuuridan o‘rin olgan metaforik ma‘nosi leksikografik talqindan o‘rin olmagan:

“**CHINOR** [f-t] Po‘sti ko‘kish, panjasimon shapaloq bargli, uzoq umrli sersoya daraxt.”²

Bu daraxt o‘zbek milliy ongida, aytilganidek, uzoq umr timsoli sifatida yashaydi. Masalan,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2- том. — Б. 22.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2- том. — Б. 370.

*Atrofda vodiylar tovlanar haya-hal,
Ming yillik **chinorlar** ko'kka boqqan tek.
Bu yerda, vo ajab, yuz yillar avval
Dunyoga kelibdi sulton Ulug'bek.*

Abdulla Oripov

*Orzum shul, o'chmasin yongan chirogang,
YUlduzday nur sochsin chashming-qarog'ing.
Magar **chinor** bo'lsang, **chinorday** yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.*

Abdulla Oripov

Izohda leksemaning semalari sirasida milliy sema sifatida “uzoq umrli” va “sersoya” ma’no bo‘lakchalari yuzaga chiqqan bo‘lib, aynan ana shu semalar ikkinchi metaforik semema uchun motiv bo‘lib xizmat qiladi.

Metaforik ma’noga albatta, birinchi, ya’ni bosh ma’no yoki boshqa bir ko‘chma ma’no asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, o‘zbek milliy ongi va qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutadigan *gul* leksemasining leksikografik talqiniga murojaat qilaylik.

“GUL [*f-t*] 1 bot. Urug‘li o‘simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan gulbarg, changdon va gulkosalardan iborat qismi. Olma guli. Nok guli. – Nurining hovlisidagi gilolar gullagan. Ularning oppoq ko‘rkam gullari quyosh nurida juda nafis tovlanar. Oybek. Qutlug‘ qon.

2 Atirgul va umuman ziynat uchun ekiladigan yoki o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar; chechaklar. Pushti gul. Oq gul. Qo‘qon gul. Tikanchiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz hunar. Maqol. Dala yo‘lining ikkin tomonidagi bog‘lar tutash gullar bilan qoplangan. Oybek. Qutlug‘ qon. Supalarning oralariga, atrofiga anvoi gullar ekilgan. A.Qahhor. Asror bobo. Shunday o‘simliklarning uzib (kesib) olingan hosili. Xotin iljayib, turli noz-ne‘mat, gullar bilan bezatilgan stolni ko‘rsatdi. A.Qahhor. Nutq.

3 Biror narsaga chizib, tikib, bosib yoki o'yib tushirilgan bezak, naqsh; ornament. Tez kunda albomning varaqlari fotosuratlariga va bo'yoq qalamda chizilgan gullarga bezandi. H.Nazir. Cho'l havosi. Mehrini do'ppining gulidan tanidi. Sh.Rashidov. Bo'rondan kuchli.

4 ko'chma poet. Gul-gul ochilgan, go'zal. *Gulni gulga qo'sh*. Maqol. Ikkovi ham uzilmagan gul. Oybek. Qutlug' qon. Maktuyubimga javob yozmading, dildor, Gulim ham, baxorim ham sensan, Gulbahor. M.Alaviya. Bermagil yovuzlarga bir daqiqa xushnudlik, Gul Vatanning mard o'g'li, ko'kragingni qalqon qil. G'ayraty.

5 (3-sh.egalik affiksi bilan) ko'chma. Yaxshisi, sarasi, jng oldingisi. Yigitlarning guli. Qizlarning guli. Jamiyatning guli. [Yodgor:] Shoh qiz, shakar qiz, qizlarning guli, Qoshlaringni ko'rsatgil, men uning quli. Ayniy, Doxunda. Ahli savdogar yurtning guli bo'ldi, uka, – dedi Yormat. Oybek, Qutlug' qon. / Fayz kirituvchisi, qizituvchisi. Yaxshi xotin – uyning guli. Maqol. Fasli bahor Qo'shnim G'afur G'ulomning ellik yilligi. O'shanda Bulbul Mamedov davraning guli bo'lgan edi. H.Nazir, Maftuningman.

Qo'li gul har ishga mohir, o'z ishining ustasi. Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor, qo'li gul odam. A.Qahhor, Xotinlar. **Gul tashlamoq** 1) gul-naqsh bilan qoplanmoq (qishda muz naqshi bilan qoplangan oyna haqida); 2) mog'orlamoq. Non gul tashlabdi. **O'n gulidan bittasi ham ochilmagan** yosh, navqiron odam haqida.”¹

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, *gul* so'zi milliy dunyoqarash va milliy ruhiyat bilan eng ko'p bog'langan, milliy qadriyatlar ifodalovchi sifatida eng ko'p qatnashadigan, keng ko'lamli konseptual bilim tashuvchisi sifatida tilimizda yashaydi. Uning semantik va konseptual keng qamrovliligi ma'nolarini farqlash va baholashda ham qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. SHu boisdan

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1- том. – Б. 196.

uning nafaqat semantik strukturasi, balki leksikografik talqini masalasida ham bir to'xtamga keluvchi ikki tadqiqotchi yoki leksikografni topish amrimahol.

Tadqiqotchilar tomonidan metaforik ma'noni ochib beruvchi qator vositalar mavjudligi va ular ma'noni to'g'ri va ob'yektiv sharhlash imkonini berishi aytilgan.

Bob bo'yicha xulosa

XXI asr tilshunosligi oldida tildan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlash, tilning tafakkur, ma'naviyat va jamiyat rivojida rolini oshirish masalasi turibdi. Tafakkur va ma'naviyat esa bevosita ona tili, tilning yaratuvchilik kuchi asosida amalga oshiriladi.

Tilni "lison→nutq" tamoyili asosida o'rganish, lisonning nutqiy voqelanishi ijtimoiy-psixologik omillar bilan qorishgan holda amalga oshirishini tadqiq qilish bugungi antroposentrik tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Metaforizasiya milliy ruhiyat va ma'naviy qadriyatlar zaminida amalga oshadi. Ma'lumki, ko'chim ikki ko'rinishda bo'ladi:

- a) lisoniy ko'chim;
- b) nutqiy ko'chim.

Lisoniy ko'chim ijtimoiy shartlanganligi tufayli unda ko'chimdagi denotasiya kuchaygan va konnotasiya buning evaziga ma'lum darajada susaygan bo'ladi. Nutqiy ko'chimda esa konnotasiya asosiy o'rinni egallab, metaforizasiyada ko'zda tutilgan asosiy maqsad uning asosan nutqiy ko'rinishida amalga oshadi.

Metaforizasiya va metaforik sememani tavsiflashda milliy sema tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi. Albatta, har bir leksema sememasida u milliy til leksikasi tarkibida mavjud bo'lganligi tufayli milliy semalardan xoli holda bo'lishi

mushkul. Ammo metaforada aksariyat semalar milliy mental qadriyatlarni ifodalaganligi tufayli milliy xarakterda bo‘ladi.

O‘simliklar olami xalq hayotida alohida o‘rin tutadi va uning turmush tarzi, milliy va etnik qadriyatlari, e‘tiqodlaridan mustahkam o‘rin oladi. SHu boisdan borliqni milliy nigoh bilan ko‘rish natijasida har bir millat uni o‘zi idrok etib, o‘zicha tasniflaydi. Tasniflash natijasi esa tilning leksik tizimida, leksik birliklarning semantik strukturasida o‘zining yaqqol ifodasini topadi. Xususan, aksariyat birlamchi nomlar, ikkilamchi nominativ birliklar va yasama so‘zlar ana shu milliy idrokning mahsulini ifodalovchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Metaforalar tilning “tush ko‘rishi” bo‘lib, unda til yangi hayotini yashaydi. Spu boisdan yalohida fenomen sifatidagi metaforaning turli qirralari tilshunoslikning har xil sohalarida maxsus o‘rganilmoqda. Ayniqsa uni tavsifiy, lingvoaksiologik, lingvokognitologik leksikografik o‘rganishlar natijalarini alohida ta’kidlash lozim.

O‘simliklar insoniyatning umri qadar unga hamqadam bo‘lganligi tufayli uning har bir xatti-harakati, o‘y-fikri biror o‘simlik yoki uning mahsuli ifodalovchilari asosida bo‘lmasdan iloji yo‘q. Bu esa borliqning boshqa hodisalarini ham ana shu mustahkam zaminga ega seterotiplar asosida baholash, o‘lchash, munosabatda bo‘lishni keltirib chiqaradi.

Dunyo tilshunosligida metaforizasiyani milliy mental qadriyat va ruhiyat timsollari sifatida o‘rganish borasida talay ishlar amalga oshirilatyogan bo‘lishiga qaramay o‘zbek tilshunosligida bu hodisaga e‘tibor, uni tilshunoslikning yangi paradagmalari tamoyillari asosida tadqiq qilish masalasida maqtanarli ishlar amalga oshirilgan leb bo‘lmaydi.

*Ikkinchi bob***BADIIY NUTQDAGI METAFORA LINGVOMADANIY KONSEPT
SIFATIDA****2.1. Badiiy nutqdagi metafora haqida**

Dunyo tilshunosligida zoomorfik, badiiy metaforik, antromorfik, ximiomorfik, vegetatomorfik kabi metaforalarni o'rganish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Arastu davridan boshlangan metaforologik tadqiqotlar sirasida zamonaviy tadqiq usullari asosida Gusakova, Kiryushkina, Panasenکو, Podolyan, Serdyuk kabi olimlar tomonidan bir til yoki asosida yoki qiyosiy aspektda turli aspektlarda atroflicha o'rganildi va o'rganilmoqda. Biroq o'zbek tilshunosligida o'simlikni ifodalovchi metafora na onomosiologik, na lingvokulturologik va na pragmatik nuqtayi nazardan maxsus tadqiq qilingan. Fanimizda metaforaga bag'ishlangan umumiy xarakterdagi ishlarni ko'ramiz. Xususan, S.Usmonov, M.Mirtojiyev va ular shogirdlarining ishlarini ta'kidlash lozim. Biroq bu borada bajarilgan ishlar formal xarakterga ega bo'lib, metaforani lison va nutq tamoyili asosida o'rganish borasida tayinli ish bajarilganligini ko'rish qiyin. Taassuf bilan qayd etish lozimki, tilning mental tabiatini namoyon qiladigan metaforani sosiopragmatik va lingvomadaniy hamda kognitiv o'rganish ehtiyoji kuchaygan bir sharoitda o'zbek tilshunosligida bu borada yetarli ishlar amalga oshirilmasdan qolmoqda.

Badiiy metaforik va o'simlikni ifodalovchi atamalarini farqlash lozim bo'ladi. O'simlikni ifodalovchi metafora deganda faqat o'simlik nomlari asosidagi nom ko'chishlari nazarda tutiladi: *chinor* ("uzoq umr"), *sarv* ("qad"), *lola* ("chiroy") kabi. Biroq badiiy nutqdagi metaforada o'simlik nomlari,

xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo‘llanilishi nazarda tutiladi: *danak* (“nevara”), *ildiz* (“ajdodlar”), *meva* (“farzand”) kabi.

O‘simliklar xalqimiz turmush tarzida keng ahamiyatga ega. Xalq hayotini o‘simliklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘ziga xos iqlim sharoiti, suvga bo‘lgan munosabat iqlim sharoiti tufayli organizmning oziq-ovqatlarga bo‘lgan ehtiyojining o‘ziga xosligi, o‘simliklar dunyosining rang-barangligi, shuningdek, muhitga bog‘liq ravishda milliy va diniy dunyoqarashning o‘ziga xos tarzda shakllanganligi kabi qator omillar xalqimizning borliqni o‘ziga xos tarzda idrok etishi, tasniflashi, tilda mavjud birliklar bilan nomlash va qayta nomlashni taqozo qilgan. Ma’lumki, o‘zbek tilining botanik terminologiyasi boshqa terminologik tizimdan, xususan, jonli xalq so‘zlashuv nutqidan keskin farqlanadi. O‘zbek tilining botanik terminologiyasi ishlanganligi, o‘simlik nomlari leksemalari sistemaviy asoslarda tadqiq qilinganligi¹ bizning ishimizni ma’lum darajada osonlashtiradi.

Badiiy nutqdagi metaforada o‘simlikni ifodalovchi leksikaga asoslaniladi.

O‘simlikni ifodalovchi leksika atalmishlari ildizsimonlar, maysalar, poyalilar, butalar va daraxtlardan iborat bo‘lib, ularning ilmiy, badiiy, so‘zlashuv uslubi hamda turli dialektlardagi varintlarini qamrab oladi.

Biz o‘z tadqiqotimizda o‘simlik va ularga xos so‘zlarning adabiy til variantlarini tadqiq qilamiz.

O‘zbek tilida, umuman olganda, dunyo tillarida o‘simlik nomlari leksemalari va ularga xos turli-tuman so‘zlarning uyushishi kuchli bo‘lib, ularni tadqiq qilgan G.Ne‘matova besh lug‘aviy-ma’noviy guruhga ajratdi: “ildizsimonlar” LMG, “maysa” LMG, “poyalilar” LMG, “buta” LMG, “daraxt” LMG.²

¹ Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари. ФФН д. 2002.

² Неъматова Г. Kўрсат.асар.

Tadqiqot jarayonida ayrim tarixiy yoki dialektal soʻzlardan ham foydalaniladi. Biroq soʻzlarga “markaz-qurshov” tamoyili asosida munosabatda boʻlinib, markazda adabiy til birliklari turadi, boshqa tur leksemalar esa qurshov yoki chekka (periferiya) birliklaridan iborat boʻladi. Albatta, oʻsimliklardan olingan oziq-ovqat yoki dori (malham) nomlari ham metaforik qoʻllanishlarga ega boʻlishi mumkin. Bunda ularning periferiyadagi oʻrni masalasi eʼtiborga molik boʻladi. Agar metaforik qoʻllanishga asos boʻlayotgan soʻz periferiyadan tashqari chiqqan boʻlsa, aniqrogʻi, ularni qurshov yoki markaz bilan bogʻlab turuvchi semantik “ip”lar kuzatilmasa, ularni tadqiqqa tortish maqsadga muvofiq emasligi eʼtiborga olindi. Masalan, oʻsimliklardan olingan dori mahsulotlari ikki turga boʻlinadi:

- a) xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor oʻsimliklar;
- b) zamonaviy tibbiyotda ishlatiladigan farmakologiya mahsulotlari nomlari.

Xalq tabobatida qoʻllaniladigan oʻsimlik nomlari va ularga bevosita daxldor atamalar badiiy metaforik leksemalar semantikasidan uzilmagan yoki ularning aynan qoʻllanishlari boʻladi. Masalan, *sumbul*, *ravoch*, *kavrak*, *ifor*, *takasaqol*, *kiyik oʻt* kabi.

Zamonaviy medisinida qoʻllanadigan dorivorlar maʼlum bir oʻsimliklar asosida tayyorlangan boʻlsa-da, ularning tarkibi, xususiyati koʻzda tutilayotgan fitonim bilan bogʻliqligi jamiyat aʼzolari tomonidan soial eʼtirof etilmagan boʻlishi mumkin va, odatda, bunday dori mahsulotini bevosita oʻsimlik bilan bogʻlash konseptual xarakterga ega emas. SHu boisdan metaforik talqinda metaforologiya semantik uzilishga uchragan birliklarni asos markaz yoki qurshov leksemalari bilan bogʻlab ish koʻrishi anʼana emas.

Xalq oʻsimlik nomlarii tizimida ikkilamchi nomlashning asosiy usullaridan koʻchim, aniqrogʻi, metaforik koʻchimdir. Hatto, metaforizasiya soʻz yasalishi darajasiga yetadi. U “olaning lisoniy manzarasini ikkilamchi nominasiyasini

shakllantirishning eng muhim va samarali vositalaridan biridir.” “Metafora bois noʻmalum obʻyektlarni maʼlum obʻyektlar bilan qiyoslash yoʻli bilan hosil qilinadigan borliq haqidagi yangi bilimlarni oʻzida aks ettiruvchi abstrakt maʼnolar shakllanishi yuz beradi, bu esa hissiy-emosional bahoni aks ettiruvchi yangi konseptlarning vujudga kelishini taʼminlaydi.”¹

Badiiy nutqdagi metaforaning aksariyati lingvistik metaforadan koʻra mental tabiati bilan xarakterlanadi. Zero, yangi ifodalanayotgan metaforik maʼno, avvalo, mentallik xususiyati, milliy ruhiyat bilan omuxtalashgan bilimlarni aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Albatta, bunda lisoniy va nolisoniy metaforani farqlash lozim boʻladi. Bu, oʻz oʻrnida, lisoniy va nutqiy koʻchim muammosi bilan bogʻlanadi. Oʻzbek tilshunosligida lison va nutqning izchil farqlanishi leksik maʼnoning ham lisoniy va nutqiy turlarini farqlash muammosini ham chetlab oʻtmadi. Bu haqda mualliflar jamoasi tomonidan eʼlon qilingan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” oʻquv qoʻllanmasida eʼtiborli fikrlar bayon etildi. Iqtibos keltiramiz: “Metaforik maʼno hosil boʻlishi uchun quyidagidan biri sabab boʻladi:

1) bir soʻz boshqa soʻzga nisbatan soʻzlovchining ifoda maqsadiga koʻproq mos va muvofiq boʻladi va shuning uchun birinchisi oʻrnida ikkinchisi qoʻllaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi boʻlmaydi va maʼlum bir soʻz boshqa denotatni ham ifodalash uchun qoʻllanadi.

Demak, birinchi holda koʻchirilayotgan soʻz denotatning ikkinchi atamasi boʻlsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, *quyi* soʻzi anglatadigan maʼnoni *etak* soʻzi qulayroq va toʻlaroq ifodalaganligi bois togʻning quyi tomoniga nisbatan *etak* soʻzi ishlatilgan. Oʻzbek tilida dengizdagi oʻziga xos

¹ қаранг: Телия В. Н. Вторичная номинация и ее виды // Языковая номинация (Виды наименования). М., 1977. – С. 192–193.

jo'g'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois *qo'ltiq* so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi.

Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe'lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida *uchmoq* fe'li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvozigga o'xshaydi. Shu boisdan *uchmoq* fe'li ifodalagan keyingi ma'no metaforik ma'no.

Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi.

Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani – sememaga aylangani nisbatan kam. *Qanot* (samolyot), *uchmoq*, *og'iz* (qop) kabi leksemalarning ushbu hosila ma'nosi metaforik semema.

Metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, adabiyotshunoslik termini sifatidagi *fojia* umumiste'mol qo'llanishdagi *fojia* so'zidan ma'noviy jihatdan uzilib, ularning nomemalari omonimik munosabatga ega bo'lgan. Shuningdek, jo'g'rofiy termin bo'lgan *qo'ltiq* umumiste'moldagi *qo'ltiq* leksemasining omonimiga aylangan.”¹

Metafora xususida so'z yuritgan tilshunoslar lisoniy va nutqiy jihatlarni farqlashar ekan, shu asosda milliy mental fenomen sifatida talqin qilishda asosiy e'tibor nutqiy metaforalarga qaratiladi. Chunki emosionallik va mentallik, mental ruhiyat asosan nutqiy metaforalarda kuzatiladi. Mentallik emosional-ekspressivlik bilan bilan uyg'unlashib ketgan bo'ladi. Shu boisdan asosiy e'tibor angalishayotgan bilimdan ko'ra, undan ko'zlanadigan maqsadga qaratiladi. “Kognitiv metafora zaminida shunday g'oya yotadiki, u lingvistik emas, balki mental metaforadir. Lisoniy sath metaforaning faqat tafakkur jarayoni mahsuliga

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: FTM, 2009. –C.101.

daxldor jihatini aks ettiradi. Metafora tilda faqat fikrni bo'yash emas, balki insonning tafakkuri va faoliyatini, hissiyotlarini tashkil etuvchi va tushunchalar sistemasida vujudga kelgan konsept ifodalovchisidir.”¹

Badiiy nutqdagi metafora turli asoslarda hosil bo'lishi mumkin:

- 1) assosiativ badiiy nutqdagi metafora;
- 2) kognitiv badiiy nutqdagi metafora;
- 3) konseptual badiiy nutqdagi metafora;
- 4) sinkretik badiiy nutqdagi metafora.

Ammo baribir, denotativ o'xshashlik va signifikativ uyg'unlik belgilari badiiy nutqdagi metafora talqinida tayanch omillar bo'lib qolaveradi.

Badiiy metaforik metaforizasiyaning semantik mexanizmi.

Metaforizasiyada so'z semantik strukturasining yangilanishi semik mohiyatning turli qirralariga asoslanishi tilshunoslar tomonidan ko'p va xo'b aytilgan. So'zning yangi semantik mohiyat kasb etishi uning sememasidagi semik komponentlar nisbatining o'zgarishi hisobiga ro'y beradi. Boshqacha aytganda, so'z semantik strukturasida denotativ, konnotativ va funksional semalar nisbati qanday bo'lishidan qat'i nazar, ularning yaxlitligi bamisoli uchburchak burchaklarining yitg'inidisi kabi ko'rinishda bo'ladi. Uchburchak burchaklarining yig'inidisi 180 darajaga teng bo'lib, bir burchakning kengayishi, albatta, boshqa burchakning torayishi evaziga sodir bo'ladi. Biror burchak qanchalik kattalashmasin yoki boshqa burchak buning hisobiga qancha kichiklashmasin, ularning umumiy yig'inidisi o'zgarmasdan qolaveradi, ya'ni 180 daraja kamaymaydi ham, oshib ham ketmaydi. Xuddi shunday leksema sememasi yangi vaziyatga, semantik sharoitga moslashar ekan, bunday uch xil semaning uyg'un o'zgarishi hodisasi yuz beradi.

¹ Будаев Э.В., Чудинов А.П. Методологические грани политической метафорологии // Политическая лингвистика. – Выпуск (1) 21. – Екатеринбург, 2007. – С. 22–31.

Barcha ko‘chimlarda bo‘lmagani kabi badiiy nutqdagi metaforada so‘z semantik sistemasining o‘zgarishi ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

a) lisoniy o‘zgarish;

b) nutqiy o‘zgarish.

Lisoniy o‘zgarish so‘z semantikasi yangi tushunchani ifodalash uchun ishlatilishida ko‘zga tashlanadi. Barcha o‘simlik nomlari bir paytning o‘zida ikki xil tushunchani ifodalashi o‘zbek tili izohli lug‘atlari orqali dalillangan (albatta, bunda *tok* so‘zining “uzum” tushunchasini ifodalay olmasligi kabi holatlar bundan mustasno). Quyida ikki tomli “O‘zbek tilining izohli Lug‘ati”da berilgan o‘simlik nomlarining semantik strukturasiga diqqat qilamiz:

Leksema	1-semema	2-semema
ANJIR (O‘TIL, 1-tom, 47-bet)	Sutsimon shirador shapaloq bargli daraxt	SHu daraxtning serurug‘ yeyishli mevasi
ANOR (O‘TIL, 1-tom, 48-bet)	Qizil gulli daraxt yoki buta	SHu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to‘la donasi
ARAXIS (O‘TIL, 1-tom, 51-bet)	Mag‘izidan moy olinadigan o‘tsimon dukkakli o‘simlik va uning mevasi	
GILOS (O‘TIL, 1-tom, 47-bet)	Olchaga o‘xshash daraxt	Uning olchadan ko‘ra yirikroq shirin mevasi
OLCHA (O‘TIL, 1-tom, 535-bet)	Atirgullilar oilasi mansub mevali daraxt	SHu daraxtning danakli, yumoloq nordon mevasi
OLXO‘RI (O‘TIL, 1-tom, 535-bet)	Mevali daraxt	SHu daraxtning danakli shirin mevasi
JIYDA (O‘TIL, 1-tom, 278-bet)	Bargi uzun, guli xushbo‘y, mevali daraxt;	

	SHu daraxtning yeyishli, medisinada dori sifatida ishlatiladigan shirin mevasi	
BODRING (O‘TIL, 1-tom, 125-bet)	Poliz o‘simligi va uning yeyishli cho‘zinchoq hosili	
QOVUN (O‘TIL, 2-tom, 591-bet)	Qovoqgullilar oilasiga mansub, hosili yirik va shirin bir yillik poliz o‘simligi va uning hosili	
QULUPNAY (O‘TIL, 2-tom, 618-bet)	Pushti yoki qizil rang, tutsimon mevali, ko‘p yillik poliz o‘simligi	Uning shirin xushbo‘y mevasi
POMIDOR (O‘TIL, 1-tom, 598-bet)	Ituzumlar oilasiga mansub sabzavot o‘simligi va shu o‘simlikning olmasimon yumaloq, yetilganda qizaradigan mevasi	
BUG‘DOY (O‘TIL, 1-tom, 156-bet)	Boshoqli g‘alla o‘simligi va uning doni, g‘allasi	
MAYMUNJON (O‘TIL, 1-tom, 442-bet)	Tanasit tikanak bilan qoplangan, yerda cho‘zilib o‘sadigan nordon, qoramtir g‘uj mevali o‘simlik	

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, fitonim va uning ma'nolari izohida ko'chimning xususiyati, turi va ma'noning strukturasi masalasida munozarali jihatlar mavjud. Aksariyat daraxt nomlari bo'lgan o'simlik nomlarida "daraxt" va "hosil" semalari asosida ikkita alohida sema ajratilgan: *olma, o'rik, olcha, olxo'ri, gilos, yong'oq, shaftoli* kabi leksemalar bunga misol. Biroq *jiyda* leksemasida bunday holni kuzatmaymiz. "Poyalilar" va "palaklilar" LMGLariga kiradigan aksariyat leksemalarda bosh va ko'chma ma'no bir butun holda tushuniladi va bitta semema ostida beriladi: *bug'doy, pomidor, arpa, makkajo'xori* kabi. Ammo *qulupnay* leksemasida ikki semema ajartiladi va bunda sememalar tushunchalarga mos kelishi ko'zga tashlanadi.

O'simlik nomlarida "o'simlik" va "hosil" sememalaridan qaysi biri birlamchi va ikkilamchi ekanligi masalasi tilshunoslikda bir qarashda "tovuq oldin paydo bo'lganmi, tuxum" kabi mantiqdan yiroqdek tasavvur uyg'otadi. Biroq bir leksemada birdan ortiq sememaning ajratilishing o'ziyoq bunda bitta ma'no bosh, qolganlari hosila ekanligi ayon bo'ladi. Demak, bunda ko'im borligi hech kimga sir emas. Ammo sememadan qaysi biri ikkinchi nominasiya natijasi ekanligi kishini o'yga solishi shubhasiz.

Insonning birinchi duch kelgan narsasi mevali o'simlikning o'zi bo'lsa-da, u bilan ilk bog'lanish uning hosili, mevasi asosida bo'lganligi isbottalab emas. Va shu asosda o'simlik nomlangani ham kishida shubha tug'dirmaydi. Bu holat "hosil" sememasi birlamchi, bosh va "daraxt", "o'simlik" sememasi ikkilamchi ekanligini ko'rsatadi. Masalan, *qovun, qulupnay, anor, olma, o'rik* so'zlari nutq qurshovidan ajratib aytilganda, kishi ongida "hosil" sememasi gavdalanishi, hosil tushunchasi jonlanishi aniq. Bular ham sememalardan qay biri birlamchi, qaysisi ikkilamchi nominasiya ekanligini ko'rsatuvchi dalillar hisoblanadi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, badiiy metaforik leksemalarda nominasiya mexanizmi "hosil → o'simlik" yo'nalishi asosida kechganligini ko'rsatadi.

Yuqorida zikr etilgan ikkilamchi nominasiya metonimik asosda bo‘lganligini aytib o‘tish joiz. Chunki ikkilamchi nominasiyaning qanday asosda kelib chiqqanligini aniqlash va uning mexanizmini oydinlashtirish hamda shu asosda kelib chiqadigan badiiy nutqdagi metaforalarni tushuntirishda ochqich va ilk zina vazifasini o‘tashi shunday yo‘l tutishni taqozo qildi.

Badiiy metaforik metaforizasiya mexanizmi murakkabligi bilan xarakterlanadi. Chunki bunda o‘simlikni ifodalovchi ob‘yektning ichki yoki tashqi, “o‘simlik” yoki “hosil”, substansial yoki zohiriy alomatlari ko‘chim uchun xizmat qilganligi bir tomondan bu murakkablikka xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o‘xshatilayotgan ob‘yektning ko‘pincha mavhum xarakterdaligi ham masalani jo‘nlikdan yiroqlashtiradi. Masalan, kishiga nisbatan qo‘llanadigan *terak* (yoki *mirzaterak*) metoforik ifodasi *terak* so‘zining denotativ ma’nosi asosida bo‘lib, bu yerda shakliy, zohiriy o‘xshashlik asos qilib olingan. SHu bosdan bunda ijobiy emas, balki salbiy baho bo‘yog‘i ifodalangan va ikkilamchi nominasiya salbiy konnotasiya vujudga kelgan. “Uzoq umr” ma’nosida *chinor* so‘zi anglatmishining bevosita kuzatishda berilmagan botiniy sifati kishi yoshiga nisbatan sifat qilib olingan va bunda mavhumlik qiyofasidagi ma’noning ijobiy emosional-ekspressiv konnotasiya bilan yo‘g‘rilganligiga amin bo‘lamiz. Demak, ko‘rinadiki, badiiy nutqdagi metafora, avvalo, ijobiy konnotasiya yoki salbiy konnotasiya ifodalashi bilan farqlanadi.

Badiiy nutqdagi metafora biryoqlama yoki ikkiyoqlama antroposentrik xususiyat kasb etadi. Zero, har ikkala holda ham metafora inson tafakkuri mahsuli sifatida uning kommunikativ ehtiyojlarini qondirish, maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Lekin kim yoki nimani tavsiflashiga ko‘ra, boshqacha aytganda, kimga yo‘nalganligiga ko‘ra antroposentrik bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, *Bolaginamning bolasi, qantak o‘rikning donasi* maqolida *o‘rik* va *dona* badiiy metaforik ko‘chimlari kishini tavsiflash uchun qo‘llangan va ikkiyoqlama antrposentrik metafora sifatida e’tirof etilishi

maqsadga muvofiq. Lekin *G'iybatlar ajriq misol bolaladi* jumlasida o'simlikni ifodalovchi leksema mavhum tushunchani ifodalash uchun qo'llangan va u insonni emas, balki uning bir "mahsul"ini tavsiflash uchun qo'llangan. Uning inson bilan bog'lanishi bevosita emas, balki bilvositadir. SHu boisdan fitonimning antrposentrik ekanligi kishida shubha uyg'otadi. Bunday metaforani antroposentrik deb atash maqsadga muvofiq emas deb bilamiz.

O'simlik nomlarining aksar holatda (aniqrog'i, hosili ijtimoiy ahamiyatga ega o'simliklar ifodalovchilari haqida shunday deyish, bizningcha, to'g'irroq bo'ladi) semantik polifunksional ekanligi, har qanday lisoniy belgining ikkiyoqlama xarakterga egaligi (signifiye – ifodalanmish, signifiant – ifodalovchi) badiiy nutqdagi metaforaning konnotativ funksiya bajarishini keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi.

Ma'lumki, konnotasiya kopengagen tilshunoslik maktabining taniqli vakili L.Elmslevning konnotativ semiologiyaning sistematik tahlili ob'yekti edi. Olim konnotasiya tadqiqiga semiotik yondashuv tarafdori bo'lib, mazmun va shakl planini farqlash asosida konnotasiyaga semiotik tavsif berish payida bo'ldi. Ferdinand de Sossyurning lisoniy birlikning ikkiyoqlama (dixotomik) jihatini ikki karra ko'paytirib, har bir lisoniy belgida minimum to'rt qirrani ajratishni taklif qildi:

- 1) ifoda plani substansiyasi – tovushlar kontiniumi;
- 2) mazmun plani substansiyasi – insoniy tajriba kontiniumi;
- 3) ifoda plani formasi – figuralar (fonemalar);
- 4) mazmun plani formasi – figuralar (fikrning kichik komponentlari).

Tartu kulturemiotika maktabining vakili Y.M.Lotman, madaniy fenomenlarni ikkilamchi modellashtiruvchi sistemalar sifatida talqin qilar ekan, shakl va mazmun planlari bir-biriga qaytuvchi ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni madaniy fenomen sifatidagi metaforada aks etgan konnotasiya birlamchi nominasiyani ham boyitadi, shaklning o'ziga xosligini ham ta'minlaydi. "Yaxlit

ishlovchi mexanizm – semiozis birligi sifatida faqat va alohida tilni emas, balki ushbu madaniyatga mansub semiotik muhitni nazarda tutish lozim edi. Bu makonni biz semiosfera deb ataymiz.”

Ko‘rinadiki, metaforik konnotasiya madaniy fenomen bo‘lgan lisoniy birlikning o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi subutiy sifatlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilidagi *chinor*, *sarv*, *gulira’no*, *nargiz* o‘simlik nomlarining shakliy mundariyasi asosida bugungi kunda metaforik mohiyati milliy madaniy semema sifatida voqelanib, bunday qo‘llanishda ularning lisoniy universaliyaga asos bo‘luvchi denotativ semasi qariyb nol darajaga tushganligiga, o‘z o‘rnini esa faqat madaniy bo‘yoqni aks ettiruvchi konnotativ semaga bo‘shatib berganligiga amin bo‘lish mumkin.

2.2. Badiiy nutqdagi metafora milliy ma’naviyat va madaniyat ifodasi sifatida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydi.¹ Har qanday borliq hodisasida shakl, mazmun va vazifa uyg‘unligi va mushtarakligi kuzatilgani kabi, inson ma’naviyati ham ana shu uchlikning o‘ziga ko‘irinishi sifatida yashaydi. Qadim–qadimdan turli shakllarda amal qilib kelayotgan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal (“Avesto”) uyg‘unligi haqidagi metodologik tamoyillar asosida inson ma’naviy dunyosini ham baholash mumkin. Insoniy shuur, shaxs ma’naviyati va ruhiy dunyosi uning xatti-harakatlari asosida real voqelikka aylanadi. Ammo uning reallashuvi, aniqrog‘i, tafakkur va borliq bog‘lanishi, albatta, yuqorida ta’kidlanganidek, insoniy til asosida tutashadi.

Insonda ruh, aql va jism nisbiy mutanosiblikda. Uning ma’naviy dunyosi ruh va aql hissasiga to‘g‘ri keladi. SHu boisdan u kishilik jamiyati paydo

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.19.

bo'lgandan buyon dolzarb, ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida yanada o'tkirlashdi. Insoniyat ma'naviy qadriyatsiz sivilizasiyadan mahrum bo'lishini teran anglab yetmoqda. Jumladan, mafkuraviy almashinuv jarayonini boshidan kechirayotgan O'zbekiston uchun ma'naviyat taraqqiyotni belgilovchi muhim omil, unda o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi muammo ekanligi ayon.

Sovet davrida *ma'naviyat* so'zi va tushunchasiga ustuvorlik berilmas edi. Bunga bir jonli dalil keltirish mumkin. 1980 yilda nashr etilgan 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *ma'naviyat* so'zi sharhlanmagan. Demak, *ma'naviyat* tushunchasi bevosita *milliylik* tushunchasi bilan bog'lanib ketganligi sababli milliylikka panja orasidan qarovchi mafkura uchun uning talqini zarur emas, hatto zararli edi.

Ma'naviyat tushunchasi O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, tamomila yangi xarakter kasb etdi. SHu boisdan Prezidentimiz bu masalaga har bir chiqishida u yoki bu darajada alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bugungi kunda ma'naviyatimiz sarchashmalari, takomillashuv tendensiya va tamoyillari, hozirgi holati va muammolarini, bu boradagi vazifalarni belgilab beruvchi metodologik tabiatli yaxlit asarga ehtiyoj mavjud edi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ma'naviyat masalasining to'rt jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: **"inson va ma'naviyat"**, **"mustaqillik va ma'naviyat"**, **"globallashuv va ma'naviyat"**, **"taraqqiyot va ma'naviyat"**.

Asarda ma'naviyat tushunchasiga berilgan tavsif o'ziga xos. Bizda ma'naviyat mohiyati ma'ni, ma'no va ma'naviy degan so'zlar asosida berilar edi. Muallif ta'kidlaganidek, "ko'pchilik ma'naviyat o'zi nima, degan savolga aniq va lo'nda javob berishga qiynaladi." Hatto bugungi kunda ham manbalarda unga berilayotgan izohlar noaniq. Masalan, yaqinda chop etilgan 5 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da unga berilgan tavsifga diqqat qilaylik: **MA'NAVIYAT** (a) barcha axloqiy narsalar (!) xususiyatlar. Insoniyat (!) ning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k. tasavvurlari (!) va tushunchalari (!) majmui."

Bunda shaxs masalasi e'tibordan chetda qolgan. Kitobda esa ma'naviyatning har bir shaxsga ham xosligi ta'kidlanadi: **“Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga undaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”** deyiladi. Albatta, bu qomusiy tavsif. Ammo u tegishli manbalardagi izohlardan o'zining keng qamrovliligi, chuqurligi va hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Demak, ko'rinadiki, davr ehtiyoji va taraqqiyot zarurati tushuncha mohiyatini kengaytirmoqda, uning yangicha idrokini taqozo qilmoqda.

Mustaqillik va ma'naviyat munosabati haqida so'z ketar ekan, ularning o'zaro ta'siriga e'tibor qaratish lozim. **Bir tomondan**, mustaqillik bo'sh ma'naviy asos ustiga qurilgan emas. Uning zamirida ming yilliklar bilan o'lchanadigan boy ma'naviy-axloqiy qadriyatimiz, donishmand bobolar ma'rifati, jangovar otalar jasorati, nekin onalar orzu-umidi mujassam ekanligi alohida urg'u va ehtirom bilan bayon etilgan. **Ikkinchi tomondan**, mustaqillik toptalgan ma'naviy qadriyat, poymol etilgan axloqiy ustunlarimizning tiklanishi va kamol topishiga poydevor yaratganligi ta'kidlanadi. Masalan, ona tilimiz mavqeining tiklanganligi, uning davlat tili maqomiga ega bo'lganligi, istiqlool imlosi shular jumlasidan. Kitobda ona tili va milliy ruh, milliy ma'naviyat, davlat tili madaniyati tushunchasiga e'tibor konseptual xarakterga ega va vazifalarimizni ham belgilab beradi. Xususan, muallif **“ona tili – millatning ruhidir, jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, uning betakror jozibasi bilan singadi”** degan iboraga kuchli ta'kid berib kelmoqda. Biz esa hanuz uni deklarativ ravishda e'tirof etishdan nariga o'tmayapmiz. Masalan, tilimizda milliy ma'naviyatimiz, madaniyatimiz qay tarzda aks etadi, degan muammoni ilmiy planda hali kun tartibiga qo'yganimiz yo'q. Til va madaniyat, til va ma'naviyat masalasini lingvistik yo'sinda, lingvokulturologik aspektda tahlil qilishga kirishilmaganligi – fikrimizning dalili.

Yana bir masalani alohida e'tirof etish kerak. O'zbek tilining davlat tili maqomini olishi ma'naviyatimiz rivojida ulkan ahamiyatga ega. Lekin shu zaminda yashab, hatto o'zbek bo'la turib, unga bee'tibor qarayotganlar, voqelikka bepisand munosabatda bo'layotganlar yo'q emas. SHu masalaning o'ziyoq ko'tarilayotgan muammo – ma'naviyat masalasining yanada dolzarbligini ko'rsatadi. Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilindi. Buni “O'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitusiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi” – deya e'tirof etadi. Biroq ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan davlat tiliga hurmat, davlat tili madaniyatini yuksaltirish hamon sust ketmoqda. Ko'p hollarda davlat tili davlat ramzlari sirasida qaralmayapti. Bu og'riqli holat muallif tomonidan alohida ta'kidlangan. “Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz kerak. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda.”¹ Demak, bugungi kunda ona tili, o'zga tillarga hurmat muammosi bilan birga davlat tili madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifadan bo'lsa, iste'molga kirayotgan davlat tili madaniyati tushunchasi esa axloqiy, ma'naviy kategoriyadan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yozuvning ma'naviy yaxlitlikda o'ziga xos o'rni bor. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har doim ham mafkuraviy hukmronlikka erishish maqsadining amalga oshishida yozuv va imlo muhim rol o'ynagan. Masalan, arablarning mafkuraviy istilosi vositasidan biri alifbo edi. Yoki XI-XII asrlarda qoraxoniylar, XIV-XV asrlarda temuriylar hukmronligi davrida arab yozuvi bilan uyg'ur yozuvining yonma-yon ishlatishi, uyg'ur yozuvini keng ommalashtirishga bo'lgan intilish bunga dalil. Shu ma'noda bugungi kunda o'zbek lotin alifbosi

¹ Каримов И. Кўрс.асар. –Б.90.

ham o‘ziga xos ma’naviy kamolot ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Milliy taraqqiyotimiz uchun qayg‘urgan jadidlar bejiz lotin imlosi haqida “yangi o‘zbek alifbosi o‘zbek xalqi taraqqiyotiga yangi yo‘l ochg‘usidir” deyishmagan edi. Yangi imloning milliy ma’naviyat tarkibida va taraqqiyotida tutgan o‘rniga shunday munosabatda bo‘linadi: “Tabiiyki, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalqimiz ma’naviy hayotidagi boshqa ko‘plab muammolar qatori til va alifbo masalasi ham biz uchun kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi.... Bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.”

Shaxs faoliyati, jamiyatning har bir sohasi ma’naviyat bilan u yoki bu darajada bevosita yoki bilvosita bog‘langan. Biroq ma’naviyat muammo sifatida har bir sohaning yetakchi mutaxassislari zimmasiga tegishli va ko‘proq mas’uliyatni yuklaydi. Prezidentimizning ushbu fikrlari ma’naviyatimizning tarixiy takomillashuvi, hozirgi holati, undagi muammo va vazifalar xususidagi umumiy metodologik xarakterli qarashlar bo‘lib, zamirida ma’naviyatga daxldor har bir sohadagi xususiy muammolarni aniqlash, undan kelib chiqadigan vazifalarni belgilash masalasi yotadi. Bu esa har birimizning zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Til ma’naviyat ifodalovchisi sifatida o‘zini namoyon qilar ekan, bunda badiiy nutqdagi metaforada milliy ma’naviyat qay tarzda va darajada aks etishini tekshirish ham ahamiyatlidir.

Tilshunoslikda jonli va jonsiz tabiat hodisalarining barcha tillarda insonni, inson xususiyatlarini anglatishini ko‘irishimiz mumkin. Masalan, ye.A.Pyulzyu shimoliy rus leksikasini tadqiq qilib, insonni va atrof-muhitni tavsiflash uchun metaforizasiya jarayonida “inson”, “predmet”, “tabiat hodisasi”, “o‘simlik dunyosi”, “mifologik personajlar” ishtirok etishi ta’kidlaydi.¹

¹ Пюльзю Е.А. Метафорическая лексика в структурно-семантическом аспекте (по материалам севернорусских говоров): Автореф. дисс. канд. филол.наук. –Петрозаводск, 2008. –22 с. –С.13, 20.

O'zbek tili o'simlik nomlari sirasida *gul* so'zi bilan bog'liq metaforizasiya o'zbek mumtoz adabiyotida, xalq og'zaki ijodida, xususan, xalq maqollari, iboralar matallar tarkibida qo'llanib, turli mental vazifalarni bajaradi.

O'zbek mumtoz adabiyoti rivojini ramziylik darajasi tamoyili asosida davrlashtirgan R.Vohidov, H.Ne'matov va M.Mahmudovlar "So'z bag'ridagi ma'rifat" asarida davrlar o'tishi bilan ramzlarning o'zgarib borishi, ya'ni bir ramzning davr o'tishi bilan yangi mohiyat kasb etishi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirishgan:

"Sharq mumtoz adabiyoti namunalarini va ularda ma'rifiy qarashlarning aks etishi jihatidan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Ilmiy-ma'rifiy asarlar.
2. Ma'rifiy-badiiy asarlar.
3. Badiiy-ma'rifiy asarlar.
4. Ma'rifiy-targ'ibiy asarlar.
5. Taqlidiy-ma'rifiy asarlar."¹

Ilmiy-ma'rifiy asarlar sirasiga olimlar tomonidan falsafiy-islomiy tabiatga molik, ma'rifiy dunyoqarashni tavsiflashni, uning ilmiy-falsafiy asoslarini bayong etishni mo'ljallagan asarlar kiritilgan. Abu Homid Muhammad G'azzoliyning (1058—1111) «Maqosidul-falosafa» («Falsafaning umidlari»), «Tafovutul-falosafa» («Falsafaning inkori») va «Ihyoul-ulumuddin» («Diniy ilmlarning tiriltirilishi») asarlarini ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar sirasida ko'rish mumkin. Bu asarlar ilmiy tusda bo'lganligi uchun ramziy obrazlar asosida fikrlarni ifoda etishga ehtiyoj sezilmaydi. SHuningdek, asarlar, asosan, arab tilida yozilganligi sababli larda metaforizasiya va badiiy nutqdagi metaforalarni qidirshin lozim topmadik.

Boshqa metaforizasiya kabi tom ma'nodagi fitometamorizasiyani ma'rifiy-badiiy asarlarda ko'rish mumkin. Bu guruhga mansub asarlar

¹ Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001. –Б.33

mualliflari o'z oldiga ma'rifat g'oyalarini badiiy usulda kuylashni va shu asosda ommalashtirishni maqsad qilib qo'yishgan. Ularda ma'rifiy-falsafiy qarashlar va badiiy fikrlar badiiy ramzlar, timsollar va obrazlar vositasida beriladi. SHu boisdan bunday asarlarda fitometamorfozasiyaning yuksak namunalarini, nafaqat oddiy metamorfozasiyani, balki metamorfozasiyaning yuksak darajasi bo'lgan original ramz, hatto majozlarni ham kuzatish mumkin. Ularda ma'rifat va badiiyat turli chuqurliklarda qatlam-qatlam holida mavjud bo'ladi. O'quvchi dastavval badiiy qatlamga duch keladi. "Bir qarashda zikri o'tgan asar badiiy adabiyot namunasiday ko'zga tashlanadi. Ammo o'sha kitob negizida ma'rifiy g'oya, axloqiy-falsafiy qarashlar tarannumi yotadi. Adabiyotimiz tarixida bunday asarlar talaygina topiladi. Mir Alisher Navoiyning «Hayratul-abror», «Lisonut-tayr», Haydar Xorazmiyning «Gulshanul-asror» kabi masnaviy dostonlari shular jumlasidandir."¹ Badiiy timsollar sifatida fitonomorfozasiyaning ikkilamchi turi, ma'rifiy timsollar sifatida qaralganda, uchinchi turi ko'zga tashlanadi, anglashiladi.

Badiiy-ma'rifiy asarlarning mohiyati shundaki, bunda ular badiiy shakl va mazmun talablarida bitilgan bo'lib, ular yuksak badiiy asarlar sifatida o'qiladi. "Bunday kitoblar, umuman, badiiy asar shakl va mazmunida bo'lib, ma'rifiy ramzlarga tayanib yozilgan. Oldingi turdagi risolalardan farqli ravishda bularda badiiyat juda kuchli va tom ma'noda badiiy asar sifatida o'qilishi va o'rganilishi mumkin. Ammo unday asarlarning badiiy timsollari, ramzlari, obrazlari zahirida «Haq-Inson» munosabatlari yotadi. Bunday badiiy yaratmalarning barchasi zulma'nayn — ikki ma'nolidir. Ularning zohiriy, tashqi ma'nolari badiiy asar mazmuni bilan jips bog'liq bo'ladi. Ammo badiiy timsollar ostida ma'rifatning «Haq-Inson» munosabatlari juda yuksak san'at bilan yashirinib keladi. Bunday asarlarda yashiringan «Haq-Inson» munosabatlari tasavvufda, u tayanadigan islomiy falsafaga to'la muvofiq bo'ladi. Lutfiyning g'azallari, Mir Alisher

¹ Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001. –Б.38

Navoiyning to‘rt devonida mujassamlangan she‘rlar, uning «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun», «Sab‘ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari, Husayniyning (Husayn Boyqaro,) Zahiriddin Bobur, Mashrab, Huvaydo kabilarning g‘azallari badiiy-ma‘rifiy asarlarning yuksak namunalaridir.” Ma‘rifiy–badiiy asarlarda ma‘rifiy g‘oyalar badiiy shakoda tarannum etilgan bo‘lsa, badiiy–ma‘rifiy asarlarda badiiy niyat ma‘rifiy ramzlarga tayanib, ma‘rifiy ramzlar mohiyati to‘liq idrok etilgan tarzda bayon etiladi. Ramzni ikki xil tushunish mumkin va metaforizasiya ma‘rifiy konnotasiya ham, badiiy konnotasiya ham tashishi mumkin. Ma‘rifiy–badiiy asarlarda esa badiiy nutqdagi metafora faqat ma‘rifiy konnotasiya bajarishga ixtisoslashgan bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bu yerda fitometaforizasiya faqat ikkinchi nominasiya bosqichida bo‘lib, u dunyoviy hodisani ifodalash bosqichisiz shakllangan bo‘ladi. Masalan, bunday asarda gul ham yorni ham Haqqai mutlaqni emas, faqat Haqqi mutlaqni ifodalash uchun ishlatilgan bo‘ladi. Buni biz shartli ravishda ma‘rifiy–badiiy badiiy nutqdagi metafora, badiiy asarlarda uchraydigan badiiy nutqdagi metaforani unda har uchala fitonominasiya mavjud bo‘lganligi tufayli badiiy–ma‘rifiy badiiy nutqdagi metafora deb ayta olamiz.

Olimlar tomonidan ajratilgan ma‘rifiy-targ‘ibiy asarlar “keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda juda sodda va ravon uslubda, nazm va nasrda yoziladi. Ularda tasavvuf, tariqat asoslari, odobi, xulqi targ‘ibiy maqsadlarda bayon etiladi. Bunday asarlar sirasiga Ahmad Yassaviy, Hakim Sulaymon Boqirg‘oniy, Boborahim Mashrabning qator g‘azal va muxammaslari, So‘fi Olloyor asarlari, turli xildagi rivoyatu jaignomalar, «Nurnomalar», qissayu dostonlar kiritilishi mumkin. Zikri o‘tgan asarlarning soni va turi juda ko‘pdir.”¹ Bunday asarlarda ma‘rifiy yoki badiiy–ma‘rifiy metaforani farqlash birmuncha mushkulligi ko‘zga tashlanadi. Shu boisdan bunday asarlardagi metaforizasiyani maxsus tadqiq qilishni tadqiqotchilarga zimmasida qoldirish bilan cheklanamiz

¹ Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001. –Б.40

Ma'rifiy-taqlidiy asarlarda badiiy-ma'rifiy va ma'rifiy-badiiy asarlarning ramz, timsol va obrazlaridan foydalanib, biroq ularning ramziy ma'nolari unutilgan yoki izchil e'tiborga olinmagan bo'ladi. Bu tipdagi asarlarda ham gul, bulbul, sarv kabi ma'rifiy timsollar ishlatiladi. Ular metaforizasiya vazifasini bajaradi. "Lekin bu timsollar endi ma'rifat ramzlari bo'la olmaydi. Bu ramzlar ostida ma'rifiy Haq-Inson munosabatlari yashirinmaydi. Shunday asarlardan ikki baytni olib ko'raylik:

Yor kelar zamona yo 'q, bo 'lmasa, bo 'lmasun netay...

Dardima gar kanora yo 'q, bo 'lmasa, bo 'lmasun netay.

Maskani ko 'z ichra desam, mardum aro kalon ekan,

Taklif etarga xona yo 'q, bo 'lmasa, bo 'lmasun netay

(Zavqiy)

Bu baytlarda qo'llanilgan yor obrazini tasavvufda Haqqa nisbat bersak, kufriy ma'no, din va tasavvuf tushunchalariga yot xulosa va hukm kelib chiqadi. "YOr kelmasa, kelmasun, nima qilaman? Boshqasini topaman, ya'ni boshqa tangriga sig'inaman!" (?).

Ikkinchi bayt esa, Haqning maskani, bor, jismi bor degan fikrni beradi. Vaholanki, ma'rifiy Haq ko'z mardumida (qorachig'ida) ham sig'averadi. Bu baytlarki ma'rifat yuzidan kufrona deb baholash lozim. Lekin bunday baytlarning mualliflari ham hech qachon oriflik da'vo qilmaydilar. Mana shu bilan oddiy shoir va orif shoir orasidagi juda muhim farq ochiladi."¹ Ma'rifiy metaforadan farqli ravishda ma'rifiy-taqlidiy metaforada metaforik qaytishni ko'rish mumkin. Bunda qaytuvchi nominasiya jarayoni yuz bergan. Chunki ikkilamchi nominasiya asosida yuz bergan uchlamchi nominasiya natijasidagi metaforik semema asosida ikkilamchi metaforizasiyaga qaytish yuz bergan. Masalan, badiiy-ma'rifiy *gul* lingvokulturemasi zohiran insonni, botinan Haqni anglatgan bo'lsa,

¹ Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001. –Б.42

ma'rifiy–taqlidiy asarda botinan insonni anglatib, zohiran Haqni anglatgandek, an'anaga teskari mohiyatga ega bo'ladi.

Xullas, o'zbek mumtoz adabiyotida *gul* metaforik birligi timsol va ramz darajasiga ko'tarilgan bo'lib, u turli davrlarda va turli adabiy va ma'rifiy manbalarda turli metaforik mohiyat kasb etgan. Bu yerda har uchala nominasiyani ko'rish mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyotida badiiy niyat badiiy mohiyatning turli qatlamlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etishini kuzatamiz. Xususan, u birlamchi nominasi vositasi sifatida yuqorida zikr etilgan o'simlikni ifodalovchi sememasini namoyon qiladi: *Bahor keldi, gullar ochildi* kabi. *Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen* (Bobur) jumlasida uch xil nominasiyani ko'rish mumkin. To'g'ri ma'nosida so'z "o'simlik" sememasini voqelantirgan. Biroq u yor, ma'shuqaga nisbatan qo'llangani nazarda tutilsa, ikkilamchi nominasiya birlamchi nominasiyadagi denotativ sema asosida konnotativ bo'yoq kasb etib, metofarizasiya yuz beradi. Gulning shakli yorning go'zalligi bilan uyg'unlashtiriladi. Tashqi go'zallik, ya'ni tashqi belgi insondagi tashqi va ichki (axloqiy) go'zallik bilan qiyoslanadi va ular bir-biriga o'xshatiladi. Demak, bu metaforizasiyada "tashqi belgi" semasi leksema insonga nisbatan yo'naltirilsa, yangi bir sema – "ichki belgi" semasi paydo bo'ladi. Uchinchi semantik qatlamda, ya'ni leksema tasavvufiy Haq timsoli sifatida qo'llanganda, ma'noda yana orayish yuz beradi. Ya'ni semadagi "tashqi" semasi kuchsizlanib, uning evaziga "ichki" semasi kuchayadi. Haqqi mutlaqning zohiriylik va moddiylikdan xoliligi shunday hukm chiqarish uchun asos bo'ladi:

*Seni topmoq base mushkul, vale topmaslig' osonkim,
Erur paydolg'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.*

(Alisher Navoiy)

*Zotidin demaydurur xud kimsa so 'z,
Kim erur ko 'r onda har binanda ko 'z.*

(Alisher Navoiy)

Ko'rinadiki, ushbu metaforik nominasiyada fitonim semasida avval kengayish va so'ngra yana torayish yuz bergan. Bu torayish ikkinchi nominasiya vohidiga nisbatan miqdoriydir. Semalar miqdori va, shunga muvofiq, sifatida o'zgarish yuzberadi:

*Sen **gulsenu** men haqir bulbuldurmen,
Sen shu 'lasenu ul shu 'lag 'a men kuldurmen.
Nisbat yo 'qtur deb ijtino aylamakim,
SHahmen elga, vale senga quldurmen.*

(Bobur)

Bulbul va *gul* o'zbek mumtoz adabiyotida dialektik birlikdagi ramzlar hisoblanadi. Ularning kontrastiv metaforik munosabati keyingi noo'simlikni ifodalovchi metaforalar bilan mustahkamlangan. Bunda ruju' san'ati amal qilganligi o'simlikni ifodalovchi metaforaning emosional–ekspressiv qiymatini kuchaytirishga xizmat qilgan:

gul–bulbul

shu 'la–kul

shah–qul

kabi.

Ushbu lingvokulturologik diskursda *gul* Haqqi mutlaq timsoli ekanligi matndagi boshqa metoforik ma'noli birliklar zidlanishidan ham ayon bo'ladi. Shu'la sabab, kul oqibat, shoh hukmron, qul tobe bo'lganligi kabi, gulga mengzalgan ob'yektning ham hokim ekanligi ayon bo'ladi. Boshqacha aytganda, *gul*, *shu 'la* va *shoh* birliklari nutqiy sinonimik munosabat hosil qilib, ularning faol ob'yekt sifatida namoyon bo'lganligi Haqqi mutlaq timsoli ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, elga shoh bo'lgan kishi baribir Haqqi mutlaqqa quldir.

Gulga bu kabi timsoliy ma'nolar yuklash boshqa mumtoz adabilar ijodida ham juda keng tarqalgan. Haqqi mutlaq va solik munosabatini dunyoviy ma'shuqa va yor obrazlari orqali *gul* va *bulbul* ramzlari bilan ifodalashga misollar keltiramiz:

*Qaysi **gulning** men kibi bir andalibi zori bor,
Qaysi bulbulning seningdek bir guli bahori bor.*

(Munis)

*Kel, ey uchmox **guli**, chimg'ong'a chiqqil,
Bu kun o'ltirmag'il ayvon ichinda.*

(Xorazmiy)

Biroq faqat dunyoviy ishq, muayyan yor va ma'shuqa timsollari sifatida qo'llangan gul o'simlikni ifodalovchi metaforasini ham kuzatish mumkin:

*O'zin **gul** bildi-yu, bulbul – Suxaylni,
Uni sevdi-yu taslim etdi maylni.
Va ne chora qilsin bulbul qafasda,
Kerak gul g'unchasi ozod qafasda.*

(Sayfi Saroyi)

Shaxsning o'zi tomonidan o'zining gul mengzalishi bunda gul timsolining faqat ma'shuqa ekanligini ko'rsatadi va metafora bunda faqat kengaygan holda – ikkinchi nominasiya bosqichida to'xtaydi.

Mutafakkir shoir Abdurahmoni Jomiyning "Tuhfatu-l-afkor" masnafiysida Haqqi mutlaq suvratini boshqa metfoforik vositalar kabi fitometamorik vositalar yordamida go'zal tavsiflaydi:

*Xostki dar oinahoi digar,
Bar nazari xesh shavad jilvagar.
Dar xuri har yak zi sifot qidam.
Ro'i digar chilva dihad lojaram.*

*Ravzai jonbaxshi jahon ofarid,
 Bog'chai kavnu makon ofarid.
 Kard zi har **shoxu gulu bargu xor**,
 CHilvai o' husni digar oshkor.
Sarv xabar az qaddi ra'nosh dod,
Gul xabar az tal'ati zebosh dod.*

Tarjimasi:

*Istadiki, ko'zgu tutib yuziga
 Ko'rsa o'zin, ham ko'rinsa o'zgaga:
 Ul azaliy sifatlardan har biri
 Bir yuz bo'lib chiqsin butundan beri.
 Er yuzining gulzorlarin yaratdi,
 Ikki jahon bog'larini yasatdi.
 Har bir shoxu bargu gulu tikandan
 Uning aksi jilvalandi yangitdan;
 Sarv go'zal qaddini berdi nishon,
 Gulda yuzing chiroyi nihon.*

Masnaviy davomida Abdurahmon Jomiy ma'rifiy adabiyotda ko'p istifoda etiladigan *sabza*, *g'uncha*, *g'oliya (meva)*, *nargis* va boshqa badiiy metaforik timsollar Haqqi mutlaqning yana qaysi sifatlarini aks etirishini go'zal badiiy shakllarda tasvirlaydi. Ularning barchasida fitonim birlamchi nominasiya asosida ifodalagan ob'yektlarning tashqi belgilari asosida Haqqning sifatlari ikkilamchi nominasiya asosida ifodalanadi. Bunda oraliq holat – inson sifatiga ishora mutlaqo yo'q. Shu boisdan bu ham ma'rifiy–badiiy adabiyot namunasi sifatida faqat ikkilamchi nominasiya asosidagi ma'rifiy–badiiy ramzlar, ikkilamchi fitometamorizatsiya asosida ish ko'radi.

Dunyo tilshunosligida “inson” tushunchasi metaforik ko'chim ob'yekti sifatida atroflicha o'rganilgan. Yuqorida keltirilgan o'simlik nomlarining metaforik qo'llanishlari insonni tavsiflash uchun istifoda etilgan. Inson ko'pincha

o‘simlikni ifodalovchi metafora yo‘naltirilgan ob‘yekt sifatida namoyon bo‘ladi. G.N.Sklyarevskaya oltita global semantik sferani ajratib, ular metaforizasiya jarayonida qatnashi, borliqdagi barcha ob‘yektlarni qamrab olishini ta’kidlaydi. Ular orasida “Inson” konseptosferasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Mumtoz adabiyotda *gul* lingvokulturemasi insonni butunicha qamrab olmasdan, faqat yorning jamoliga nisbatan qo‘llanilib, bunda gul go‘zalligi yuz go‘zalligi uchun fitomormik metafora vazifasini bajaradi:

*Sumantek orazing **guldur** tikansiz,
Menga do‘zax erur uchmox sensiz.*

(Xorazmiy)

*Ey bog‘i nazokatda qadi sarv, yuzi **gul**,
Ul yuzdin erur ishq eli chun qumriyu bulbul.
Rayhonu binafsha xati zulfingni asiri,
SHamshodu sanubar qading oldida ikki qul.*

(Huvaydo)

Shuningdek, misralarda *sarv*, *rayhon*, *binafsha*, *shamshod*, *sanubar* fitometamorik vositalari ham qo‘llangan bo‘lib, ulardagi metaforizasiyaning semantik mexanizmi bilan aynandir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida gul timsolining faqat ma’shuqa timsolida qo‘llanishini ko‘rsatuvchi kontekstlar ham mavjud. Masalan, SH.Rashidovning “”Kashmir qo‘shig‘i” dostonida *gul* badiiy nutqdagi metaforasi insonni (faqatgina ma’shuqani emas) anglatishini ko‘rish mumkin:

*Sevgidan benasiblar – hidsiz **guldirlar**,
Sevgidan benasiblar – mevasiz daraxtlar.*

(Sh.Rashidov)

Chunki bu, birinchidan, zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunasiga xos asarda qo‘lalanyotganligi, ikkinchidan, Haqqi mutlaqqa nisbatan hidsiz so‘zini ishlatib bo‘lmasligini ta’kidlashning o‘zi yetarli. Biroq bunda metafora sevgi bilan bog‘liq ravishda qo‘lalanyotganligi tufayli unda qalb haqida so‘z borayotganligini

anglash qiyin emas. Qalb go‘zalligi nazarda tutilayotganligi tufayli bunda ko‘chim “ichki” semasini ustuvorlashtirilganligiga amin bo‘lish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodida ham *gul* fitonimi insonga nisbatan metaforik ko‘chim sifatida qo‘llanganligiga amin bo‘ldik. Zero, xalq og‘zaki ijodida haqni timsollashtirish hollari kamdan-kam uchraydi:

Qanday odam qildi qayg‘u-zulmni,

*Xafa qipti senday toza **gulumni**.*

(“Rustamxon”)

Xalq dostonlari ma’rifiy adabiyot sirasiga kirmaganligi, shuningdek, xudoga nisbatan xafa bo‘lish holatining nisbat berilmasligi bunda ham ikkinchi nominasiyaga asoslangan badiiy nutqdagi metaforazasiya yuz berganligini asoslaydi.

Gul fitometamorik lingvokulturemasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida “eng chiroyli”, “eng sara” semalari asosida ko‘chim hosil qilganligini ko‘rish mumkin. Bunda endi leksema har xil boshqa hodisalarga nisbatan ham ifodalovchi sifatida qo‘llanaveradi:

*Maktab – millatning **guli**,*

Millat – aning bulbuli.

Maktabsiz qolgan millat

Boshqa chamanning quli.

(Hamza)

Milliy ruhiyat o‘zbek xalq maqollari va matallarida yorqin ifodasini topadi. Shu boisdan badiiy nutqdagi metaforaning xalq maqollarida diskursiv vazifa bajarishini tekshirishga o‘tamiz.

Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedov tomonidan tuzilib, “O‘zbek Sovet ensiklopediyasi” nashriyotida 1990- yilda chop etilgan, o‘zbek xalq

maqollarining izohli lug‘ati (“Hikmatnoma”)da o‘simlikni ifodalovchi leksema lingvokulturema sifatida qatnashgan qator maqollarni kuzatdik:

*Arpa yemagan otlarim **ajriqqa** zor bo‘ldi,
Podsho minmagan otlarim gado tagida xor bo‘ldi.*

*Arpa og‘sa kandugingni tuzat,
Bug‘doy og‘sa, somonxonangni.*

*Arpa-**bug‘doy** osh bo‘lar,
Oltin-kumush tosh bo‘lar.*

Arpa pishar, ishingiz tushar.

*Arpa ekkan arpa olar,
Bug‘doy ekkan **bug‘doy** olar.*

*Bir **anor** ming bemorga davo.
Bir yomon **anjir** kesar,
Ikki yomon zanjir kesar.*

*Bir **mayizni** qirq kishi bo‘lib yebdi.*

***Bug‘doy** bo‘lsa, o‘lchov topiladi.*

***Bug‘doy** eksang kuzda ek,
YAxshi haydab, bo‘zga ek.*

***Bug‘doy** o‘rilgach, o‘roqni zang bosadi.*

*Bug‘doy hosili boshida,
Sabzi hosili tagida.*

*Gul bo‘lib tug‘ilib,
Sassiq alaf bo‘lib yashama.*

*Gul – dasta-dasta,
Gul bermagan – nokasta.*

*Gul tikonin zahri yomon,
Qiz monandning qahri yomon.*

*Gul bo‘lib tug‘ilib,
Sassiq alaf bo‘lib yashama.*

Gul tikonsiz bo‘lmas.

Gulsiz bulbul – unsiz bulbul.

Ona bilan bola – gul bilan lola.

O‘zbek lingvokultur muhitida badiiy nutqdagi metaforaning xalq tarixi, yashash tarzi va orzu-intilishlarini anglatishida o‘ziga xos o‘rni bor. Xususan, badiiy nutqdagi metafora go‘zallik, oziqlik yoki umuman boshqa naf ma’nosini turli ko‘rinishlarda ifodalaydi.

Inson uchun, albatta, birinchi o‘rinda, albatta, non turadi. Hatto, maktab undan-da keyin turadi. Shu boisdan ruslarda “inson uchun nondan keyin eng muhim narsa maktabdir” degan maqol bor.

Non o‘zbek millati uchun taomlarning shohi. U eng ko‘p iste’mol qilinadigan oziq mahsuloti. Non esa bug‘doy, ba’zan arpadan olinadi. Ocharchilik yillari arpaning mavqei oshib ketgan holatlari kuzatiladi. Shu boisdan arpa yoki bug‘doy lingvokulturemasi ishtirok etgan maqollarning qanday sharoitda vujudga kelganligini, yaratilganligini taxminan aytish mumkin. Masalan, bugungi to‘qchlik va farovonlik sharoitida arpa non qilib yeyish urf emas va ko‘pchilik, ayniqsa, yoshlar, buni tasavvur ham qilishmaydi. Arpa hayvonlar uchun yem sifatida ishlatiladi, xolos.

Arpa va *bug‘doy* lingvokulturemasi yaxlit holda qo‘shma so‘z sifatida qo‘llanib, juft so‘z ko‘rinishida “g‘alla” ma’nosini anglatadi. Arpa so‘zi uchun *bug‘doy* so‘zi sinonim bo‘la olmaydi. Lekin ular bilan gipo–giperonimik yoki partonimik munosabatda yashaydigan *g‘alla*, *don* so‘zlari nutqiy kontekstual ma’nodoshlik munosabatida bo‘la oladi. Arpa–bug‘doyning ba’zan oltin–kumushdan afzal bo‘lishini biz D.Defoning “Robinzon Kruzo” sarguzasht asari orqali bilamiz. Bu uning lingvokulturologik mohiyat kasb etishining genetik sabablaridan bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbek xalqida shunday rivoyat bor: “Rivoyat qilishlaricha, bir savdogar boy xurjunining bir yog‘iga oltin, bir yog‘iga kumush to‘ldirib, shu boyliliga ishongan holda hech qanday oziq–ovqat olmy, safarga jo‘nabdi. Uning yo‘li kimsasiz cho‘lu–biyobonga tushibdi. Zog‘ uchramaydigan bu yerlarda na suv bor–u, na ovqat. Haligi boy necha kun och–nahor yurib, nihoyatda holdan toyib, nima qilarini bilmay ketayotsa, qarshisidan bir gado chiqib qolibdi. Uning xaltasi to‘la non ekan. Boyning ko‘zi nonga tushib, suyunganidan sal bo‘lmasa, o‘zidan ketayozibdi.

– Mana bu xurjundagi oltin–kumushlarga noningni ayirbosh qilasanmi?– debdi boy gadoga.

Gadoning ko‘zi xurjundagi oltin–kumushga tushib, yuragi yorilayozibdi va darhol jon deb rozi bo‘libdi.

Boy unga oltin–kumushlarini berib, nonga to‘yib, darmonga kirib, yana yo‘liga ravona bo‘libdi. Galo bo‘lsa xurjunini yelkasiga tashlab, bir kun yuribdi, ikki kun yuribdi, qorni ulguday ochibdi. Biror yegulik narsa qayoqda? Oltin–kumushni esa yeb bo‘lmaydi. Axiri ochlikdan sillasi qurib, holdan oyib, qumga yiqilib yotib qolibdi. O‘lar holga kelganda oltin–kumushlarini oldiga quyib, oltin tangasi bilan yerga chizib, “arpa–bug‘doy osh ekan, oltin kumush tosh ekan”, deb yozibdi–da olamdan o‘tibdi.”¹

Lingvokulturema ham nutqiy vaziyat, ob‘yektiv voqelik bilan bog‘liq ravishda o‘z mohiyatining turli qirralarini naomyon qilishi mumkin. SHu bilan bog‘liq ravishda hech bir millat milliy ma‘naviyatida nonning qiymati oltin–kumushdan past ko‘rilmaydi. Garchi oltin–kumushni nonga almashtirishni mutlaqo istashmasa ham. O‘zbek milliy ma‘naviyatida nonning roli va o‘rni muqaddas bo‘lib, uni ko‘z to‘tiyo, yuzga tavof qilish azadiy va abadiy udumlarimizdandir. Shu boisdan bug‘doy, don tushunchalari muqaddas qadriyatlarimizdan biri sifatida xalq rituallari sirasidan o‘rin olgan. Non to‘qliq, tinchlik, farovonlik, mehr–oqibat ramzi bo‘lganligi sababli bug‘doy, donga yuksak hurmat bilan e‘tiborda bo‘lamiz. Bug‘doy boshog‘i tasvirining davlat gerblari tarkibidan o‘rin olishini ham shu bilan izohlasa bo‘ladi. Bug‘doy xalq lisoniy ongida ezgulik timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi, ayrim hodisalarni baholashda ushbu lingvokulturemaga “etalon” sifatida munosabatda bo‘linadi. “Bug‘doy bo‘lsa, o‘lchov topiladi” maqolida buning yorqin dalilini ko‘ramiz. “Ilgari dehqonlar yo xonadonlar bir–birlaridan don qarz olsalar, taroziga solib emas, o‘zlariga belgili bir o‘lchov idishlari (xalta, to‘rvacha, chelak va b.) bilan o‘lchab berar edilar. Mazkur maqol “har bir narsaning qiyini bo‘lsa, osoni o‘z–o‘zidan bitib ketadi” degan ma’noda aytiladi.”² Bu yerda bug‘doyning

¹ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбек Совет энциклопедияси, 1990. –Б.20.

² Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбек Совет энциклопедияси, 1990. –Б.70.

muqaddasligiga uning yetishtirilishidagi zahmat yotganligini ham ko‘rish mumkin. Sug‘orma dehqonchilik sharoitida bug‘doyni yetishtirish uchun dehqon ming mashaqqatlarga duch keladi. Markaziy Osiyoda sug‘orma dehqonchilik usuli ushbu lingvokulturemaga “mashaqqat bilan yetishtirish” milliy semasini ham bergan. Albatta, *bug‘doy* leksemasida bu milliy–mental sema ajratilmaydi. Ammo u lingvokulturema sifatida metaforik mohiyat kasb etganda yuqori konnotativ bo‘yoqlarda qo‘llanish ushbu holatning realligini ta‘minlaydi.

Ko‘rinadiki, barcha maqollarda fitometamorizatsiyasi vositasi bo‘lgan bug‘doy so‘zi ba‘zan, mashaqqatli mehnat, vaqtida qilinadigan ish, eng qimmatbaho narsa kabilarga nisbatan metaforik ko‘chim sifatida ishlatilgan. Bunda denotativ sema (“oziq”) metamorizatsiya jarayonida turli semantik rolni bajaradi. Ba‘zan ikkilamchi nominatsiyada denotativ, ba‘zan konnotativ vazifani naomyon qilish uchun asos bo‘ladi.

Xalq maqollarida o‘simlikni ifodalovchi lingvokulturema fikrning maqsadi, ob‘yekti yoki vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, maqolni to‘g‘ri tushunish, uning izohida bosh ma’noga asoslanish ma’qul emas. Maqol – ibrat ifodasi. Masalan, *gul* lingvokulturemasini maqolda berishning sababi gulni tavsiflash emas. Maqol yaxlit holda metafora, majoz yoki ramz sifatida tushunilishi lozim. Maqoldan ko‘zlangan maqsad uchun uning to‘g‘ri ma’nosi faqat bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi, xolos. SHu boisdan maqollar lug‘atida maqolning bosh ma’nosini izohlashni maqolni izohlash sifatida tushunish ma’qul emas. Maqol ko‘chma ma’no asosidagi fenomen. Metaforik ma’no maqolning mohiyatni tashkil qiladi. Aks holda u oddiy naqldan iborat bo‘lub qolur edi. Deylik, *gul* va *piyoz* birliklari qatnashgan bir maqolga murojaat qilaylik: *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog‘ piyoz*. Bunda sharhda gul va piyoz predmetlari haqida gap ketganda mazkur so‘zlarni lingvokulturema sifatida qarash ma’qul emas. Zero, u oddiy leksema sifatida nutqda so‘z ko‘rinishida ishtirok etmoqda. *Gul* eng aziz va qimmatbaho narsaning ramziy fitometamorik

atamasi, *piyoz* esa uning aksi sifatida idrok etilganda, *gul* haqidagi insoniy tasavvurlar metodologik qiymat kasb etganda u ramz darajasiga ko'tariladi, lingvokulturema sifatida idrok etiladi va talqin qilinadi. Mazkur maqolda inson qurbi yetsa, sovg'a sifatida eng qimmatbaho narsani taqdim etadi, iloji yetmasa, uning uchun arzirlik narsa sifatida *piyoz* namoyon bo'ladi. Bunda *gul* va *piyoz* lingvokulturemalari "qimmat"– "arzon" milliy-mental-madaniy sema asosida zidlanadi. Ularning leksik ma'nosi strukturasidagi boshqa denotativ semalar lingvokulturema sifatida namoyon bo'lganda, mo'tadillashadi.

Bug'doy lingvokulturemasi uchun u bilan partonimik munosabatdosh *don* so'zining nutqiy ma'nodosh sifatida qo'llanayotganligini ko'rish mumkin:

*Xirmon to 'lib to 'kildi **don**, to 'kildi don, momo,*

Tandir to 'lib, yopildi non, yopildi non, momo.

(H.Xudoyberdieva)

Bunda *don* so'zining *bug'doy* so'zi uchun ma'nodoshlik munosabatida ekanligini ikkinchi misradagi *non* so'zi muayyanlashtiruvchi kontekstual omil sifatida namoyon qilmoqda.

Bug'doy noning bo'lmasin, *bug'day* so'zing bo'lsin maqolida *bug'doy* lingvokulturemasi insonlararo iliq munosabatni ifodalash, targ'ib qilishda bilvosita kontesktual reallashtiruvchi sifatida ishlatilmoqda.

"Tuzoq qo'ydim piyozga, ilinsa – shu yozga, ilinmasa, yanagi yozga" maqoli piyoz haqida uzoq yillar davomida to'plangan tajriba asosida shakllangan. *Piyoz* maqolda kulturema sifatida yuzaga chiqqan bo'lib, bunda metaforizasiya piyoz urug'i yerga tushsa, uzoq vaqt o'tsa ham chirimay yotishi haqidagi tasavvurlarga asoslangan. *Piyoz* kulturemasi maqolda bevosita fikr maqasdigga bo'ysundirilgan.

Konseptual metaforik modellarda lingvokulturemalarning asosiy emas, balki ikkinchi yoki uchinchi darajali ahamiyatga egaligini ham maqollarda kuzatish mumkin. Buni ularning boshqa lingvokulturemalar bilan bemalol

almashtirilish bilan dalillash mumkin. Masalan, “Tarig‘i pishganning tovug‘i bo‘lgini keladi” maqolidagi *tariq* kulturemasini bemalol, *mosh*, *zig‘ir*, *arpa*, *don*, *kunjut* kabi kulturemalar bilan almashtirish mumkin. Bunda u umuman “don” ma’nosida kelayotganligini anglash qiyin emas. Ammo yuqorida keltirilgan maqoldagi gul va piyoz so‘zlarini almashtirish mumkin emas. SHu boisdan ular madaniy semantik roli ustuvor kulturema sifatida baholanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, badiiy metaforik lingvokulturemalar xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli barqaror madaniy qiymat kasb etgan. Bu barqarorlik ularning maqollar tarkibidan o‘rin olishini ta’minlagan.

Badiiy metaforik lingvokulturema fikr ifodasi uchun asosiy va bo‘lmagan vosita sifatida ishtirok etadi.

Bob bo‘yicha xulosa

Badiiy nutqdagi metafora o‘simlikni ifodalovchi leksika birliklarining bosh ma’nolariga asoslanadi. Bunda o‘simlikni ifodalovchi leksema bilan tur-jins, qism-butun munosabatida turgan boshqa leksik birliklar ham ko‘chma ma’no ifodalab, o‘simlikni ifodalovchi metafora hosil qilishi mumkin.

Badiiy nutqdagi metaforada konnotasiya asosiy o‘rinni egallaydi va bu metaforizasiyaning asosida konnotativ bo‘yoqlarda milliy koloritni, ruhiyatni ifodalash yotadi.

Fitometamorizasiya o‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida ikkilamchi va uchlamchi nominasiya jarayoni bo‘lib, u yozma badiiy adabiyotimizda quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan:

- a) ma’rifiy–badiiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora;
- b) badiiy–ma’rifiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora;
- v) ma’rifiy–taqlidiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora;
- g) badiiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora.

Xalq og‘zaki ijodida esa faqat badiiy nutqdagi metafora kuzatiladi. Unda badiiy nutqdagi metafora ramziylik va timsol darajasida emasligi aniqlandi.

Mumtoz adabiyotda o‘simlikni ifodalovchi leksika ramz darajasiga ko‘tarilganligi tufayli ularni muqim badiiy nutqdagi metafora sifatida tavsiflash mumkin. Ammo zamonaviy o‘zbek adabiyotida badiiy nutqdagi metafora muvaqqat bo‘lganligi tufayli ular talqinida kontekstual yoki diskursiv tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi badiiy nutqdagi metaforani uzuallik–okkozianallik belgisi asosida zidlash mumkin.

Badiiy metaforik lingvokulturemalar xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli barqaror madaniy qiymat kasb etgan. Bu barqarorlik ularning maqollar tarkibidan o‘rin olishini ta’minlagan.

Badiiy metaforik lingvokulturema fikr ifodasi uchun asosiy va bo‘lmagan vosita sifatida ishtirok etadi. Shu boisdan ular maqollar tarkibida turli semantik rol bajaradi.

XULOSA

XXI asr tilshunosligi oldida tildan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlash, tilning tafakkur, ma'naviyat va jamiyat rivojida rolini oshirish masalasi turibdi. Tafakkur va ma'naviyat esa bevosita ona tili, tilning yaratuvchilik kuchi asosida amalga oshiriladi.

Tilni "lison→nutq" tamoyili asosida o'rganish, lisonning nutqiy voqelanishi ijtimoiy-psixologik omillar bilan qorishgan holda amalga oshirishini tadqiq qilish bugungi antroposentrik tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Metaforizasiya milliy ruhiyat va ma'naviy qadriyatlar zaminida amalga oshadi. Ma'lumki, ko'chim ikki ko'rinishda bo'ladi:

- a) lisoniy ko'chim;
- b) nutqiy ko'chim.

Lisoniy ko'chim ijtimoiy shartlanganligi tufayli unda ko'chimdagi denotasiya kuchaygan va konnotasiya buning evaziga ma'lum darajada susaygan bo'ladi. Nutqiy ko'chimda esa konnotasiya asosiy o'rinni egallab, metaforizasiyada ko'zda tutilgan asosiy maqsad uning asosan nutqiy ko'rinishida amalga oshadi.

Metaforizasiya va metaforik sememani tavsiflashda milliy sema tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi. Albatta, har bir leksema sememasida u milliy til leksikasi tarkibida mavjud bo'lganligi tufayli milliy semalardan xoli holda bo'lishi mushkul. Ammo metaforada aksariyat semalar milliy mental qadriyatlarni ifodalaganligi tufayli milliy xarakterda bo'ladi.

O'simliklar olami xalq hayotida alohida o'rin tutadi va uning turmush tarzi, milliy va etnik qadriyatlari, e'tiqodlaridan mustahkam o'rin oladi. SHu boisdan borliqni milliy nigoh bilan ko'rish natijasida har bir millat uni o'zi idrok etib, o'zicha tasniflaydi. Tasniflash natijasi esa tilning leksik tizimida, leksik birliklarning semantik strukturasida o'zining yaqqol ifodasini topadi. Xususan,

aksariyat birlamchi nomlar, ikkilamchi nominativ birliklar va yasama soʻzlar ana shu milliy idrokning mahsulini ifodalovchi birliklar sifatida namoyon boʻladi.

Metaforalar tilning “tush koʻrishi” boʻlib, unda til yangi hayotini yashaydi. Shu boisdan yalohida fenomen sifatidagi metaforaning turli qirralari tilshunoslikning har xil sohalarida maxsus oʻrganilmoqda. Ayniqsa uni tavsifiy, lingvoaksiologik, lingvokognitologik leksikografik oʻrganishlar natijalarini alohida taʼkidlash lozim.

Oʻsimliklar insoniyatning umri qadar unga hamqadam boʻlganligi tufayli uning har bir xatti-harakati, oʻy-fikri biror oʻsimlik yoki uning mahsuli ifodalovchilari asosida boʻlmasdan iloji yoʻq. Bu esa borliqning boshqa hodisalarini ham ana shu mustahkam zaminga ega seterotiplar asosida baholash, oʻlchash, munosabatda boʻlishni keltirib chiqaradi.

Dunyo tilshunosligida metaforizasiyani milliy mental qadriyat va ruhiyat timsollari sifatida oʻrganish borasida talay ishlar amalga oshirilatyogan boʻlishiga qaramay oʻzbek tilshunosligida bu hodisaga eʼtibor, uni tilshunoslikning yangi paradagmalari tamoyillari asosida tadqiq qilish masalasida maqtanarli ishlar amalga oshirilgan leb boʻlmaydi.

Badiiy nutqdagi metafora oʻsimlikni ifodalovchi leksika birliklarining bosh maʼnolariga asoslanadi. Bunda oʻsimlikni ifodalovchi leksema bilan tur-jins, qism-butun munosabatida turgan boshqa leksik birliklar ham koʻchma maʼno ifodalab, oʻsimlikni ifodalovchi metafora hosil qilishi mumkin.

Badiiy nutqdagi metaforada konnotasiya asosiy oʻrinni egallaydi va bu metaforizasiyaning asosida konnotativ boʻyoqlarda milliy koloritni, ruhiyatni ifodalash yotadi.

Fitometamorizasiya oʻzbek adabiyoti va xalq ogʻzaki ijodida ikkilamchi va uchlamchi nominasiya jarayoni boʻlib, u yozma badiiy adabiyotimizda quyidagi koʻrinishlarga ega boʻlgan:

- a) maʼrifiy–badiiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora;
- b) badiiy–maʼrifiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora;
- v) maʼrifiy–taqlidiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora;

g) badiiy asosdagi badiiy nutqdagi metafora.

Xalq og‘zaki ijodida esa faqat badiiy nutqdagi metafora kuzatiladi. Unda badiiy nutqdagi metafora ramziylik va timsol darajasida emasligi aniqlandi.

Mumtoz adabiyotda o‘simlikni ifodalovchi leksika ramz darajasiga ko‘tarilganligi tufayli ularni muqim badiiy nutqdagi metafora sifatida tavsiflash mumkin. Ammo zamonaviy o‘zbek adabiyotida badiiy nutqdagi metafora muvaqqat bo‘lganligi tufayli ular talqinida kontekstual yoki diskursiv tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi badiiy nutqdagi metaforani uzuallik–okkozianallik belgisi asosida zidlash mumkin.

Badiiy metaforik lingvokulturemalar xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli barqaror madaniy qiymat kasb etgan. Bu barqarorlik ularning maqollar tarkibidan o‘rin olishini ta’minlagan.

Badiiy metaforik lingvokulturema fikr ifodasi uchun asosiy va bo‘lmagan vosita sifatida ishtirok etadi. Shu boisdan ular maqollar tarkibida turli semantik rol bajaradi.

Badiiy nutqdagi metafora quruq lisoniy hodisa bo‘lmasdan, balki konseptual fenomen bo‘lib, u nometaforik tushunchasiga tayanadi va uni mental madaniyatga bog‘liq bilimlar bilan boyitadi.

Badiiy nutqdagi metafora uzatilish va qabul qilinishda faqat ongga emas, balki hislarga ham tayanganligi uchun perseptiv qulaylik yaratadi, shu boisdan til leksikonining giperbolizasiyasini ta’minlaydi.

Badiiy badiiy nutqdagi metaforaning qo‘llanilishi o‘quvchining metaforik va obrazli tafakkurini rivojlantiradi.

Inson bilmagan narsalarini bilgan narsalari asosida baholaydi. Demak, bilgan narsa ifodalovchisi bilmagan narsa haqidagi bilimlarni ifodalash, uzatish vositasi sifatida kognitiv jarayonda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Insoniyatning qarashlari borliq — hayvonot va nabotot olami bilan shu darajada birlashib ketadiki, ularning biri haqidagi tasavvurlar boshqasi

haqidagisini to'ldiradi, mukammallashtiradi, insonning borliq haqidagi bilimlari yaxlitligini ta'minlaydi.

Insoniyat o'zi yaratgan maqollarida biri asosidagi tushunchalari bilan ikkinchisi haqidagi fikrlarini muqoyasa qiladi, to'ldiradi, ifodalarning obrazli bo'lishini ta'minlaydi. Birlamchi fikrlar ifodasi asosida ikkilamchi, hosila fikrlarni verballashtiradi. Bevosita kuzatishda berilgan, inson sezgi a'zolari bilan anglagan hodisalar xususiyatlari asosida mavhum tushunchalariga muayyanlik baxsh etadi. Uning ijodiy tafakkuri mohiyati ham shunda, ko'rganlari, kuzatganlari haqidagi bilimlari asosidagina mavhum tushunchalarga munosabatda bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008. — Б.19.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий, иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. —Т.: Ўзбекистон, 1995.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o`zbek adabiy tili. —Т.: FTM, 2009. —С.101.
4. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. автореф. —Т., 1990;
5. Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: автореф. дисс....канд.филол.наук. —Т.,1968.
6. Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // Нутқ маданиятига оид масалалар. —Т., 1973.
7. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Адабий норма ва нутқ маданияти. —Т., 1983.
8. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. -Т., 1988.
9. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, 1-қисм. -Т.:Фан, 1997.
10. Бегматов Э., Турсунпўлатов М. Ўзбек нутқи маданияти асослари. -Т., 1992.
11. Вейсгербер, Й. Л. Язык и философия // Вопросы языкознания. - 1993. - № 2.
12. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. —Т.: Ёзувчи, 2001.
13. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. —Т., 2000.

14. Коул, М. Культура и мышление // Психологический очерк ; под ред. А. Р. Лурия. - М.: Прогресс, 1977.
15. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. М.: Гнозис, 2002.
16. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. -Т., 1993.
17. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. -Т., 1985.
18. Қодирова Х. Эвфемик бирликларнинг маъно қамрови асосидаги таснифи // А.Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. –Т., 2009.
19. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. - № 4.
20. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т., 2010.
21. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Т.:Ўзбекистон, 1992.
22. Мусаева Е.М. Миф и метафора // Фразеология в дискурсах разных типов. Вестник ИГЛУ. Сер. Лингвистика. Иркутск: ИГЛУ, 2000.
23. Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари. ФФН д. 2002.
24. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 2000.
25. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006.
26. Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. –Т., 1969.
27. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Т., 2001.
28. Сафаров Ш. Пргмаллингвистика. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти, 2008.
29. Сепир, Э. Язык, раса, культура // Избранные труды по языкознанию и культурологии. - М, 1993.
30. Серебренников, Б. А. О материалистическом подходе к явлениям языка. - М., 1983.

31. Толстой, Н. И. Язык и культура // Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. - М., 1995.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. –М.: Русский язык, 1981.
33. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2- том. –М.: Русский язык, 1981.
34. Уорф, Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. - М., 1960. - Вып. 1.
35. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. 1964, -№ 4.
36. Шомақсудов А. Муқимий сатираларининг тили. –Т., 1970.
37. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Т., 1983.
38. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. –Т., 1990.